

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

SAIDOV TOSHPULAT

**O`RTA ASRLAR YEVRIPA JAMIYATIDA
UMUMTABAQAVIY MUASSASALARNING O`RNI
(FRANSIYA VA ISPANIYA MISOLIDA)**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: ass. O'sarov S.R.

SAMARQAND - 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
	betlar
I BOB. O'RTA ASRLAR FRANSIYA TARIXIDA	
UMUMTABAQAVIY MUASSASALAR	
I.1. Fransiyada umumtabaqaviy muassasalarning shakllanish	8-18
tarixi (General shtatlarga).....	betlar
I.2. General shtatlarning chaqirilishi va uning mamlakat	19-28
ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotidagi roli.....	betlar
I.3. Fransiyaning o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy	29-38
taraqqiyotida umumtabaqaviy muassasalarning ishtiroki....	betlar
II BOB. O'RTA ASRLAR PIRENEY YARIM OROLIDA	
UMUMTABAQAVIY MUASSASALAR	
II.1. Pireney yarim oroli davlatlarida umumtabaqaviy	39-46
muassasalarning paydo bo'lishi.....	betlar
II.2. Kortoslarning chaqirilish tartiblari, unda ishtirok etuvchi	47-53
tabaqalar va ilk korteslar faoliyati.....	betlar
II.3. O'rta asrlarda Ispaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy	54-65
hayotida korteslar.....	betlar
XULOSA.....	66-68
	betlar
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	69-70
	betlar

KIRISH

Kishilik jamiyati tarixida o'rta asrlar davrining o'rni alohida ahamiyatga ega. O'rt asrlar dunyosi jamiyat taraqqiyotining qonuniy bir bosqichi bo'lib qolmasdan, tarixning o'ziga xos, takrorlanmas bir davri sifatida gavdalanadi. Garchi o'rta asrlarni bizning davrimizdan bir necha asrlar ajratib turishga qaramasdan, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish hamon yuqori. Qanchalik ko'p o'rgansak, shuncha ko'p yangi ma'lumotlarni, boy manbalarga duch kelaveramiz.

Doimo insoniyatni oldinga undovchi omillardan biri tarixiy xotiradir. «Har qaysi xalqning milliy qadriyatlarini o'z maqsad- muddolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va istiroblari bilan xolis va haqqaniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi».¹

Hozirgi zamon tarixshunosligida o'rta asrlarning asosiy hususiyati bo'lgan feodalizm munosabatlarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Deyarli dunyoning barcha xalqlari bosib o'tgan ko'p asrlik o'rta asrlar tarixini bilmasdan turib, feodalizm mohiyatini va umuman o'rta asrlar tarixini to'la tushunib bo'lmaydi. Masalaning yana bir tomoni borki, u ham bo'lsa, o'rta asrlar davri Osiyo tarixini Yevropa qolipida o'rganib bo'lmaydi va aksincha Osiyo qolipida ko'hna qit'aning bu davr tarixini o'rganib bo'lmaydi. Kerak bo'lsa har bir xalq va mamlakat insoniyatning bu bosqichini o'ziga xos bosib o'tgan bo'lsa-da, ularni yaqinlashtiruvchi umumiy jihatlar ham mavjud bo'lgan.

O'rta asrlar Yevropa tarixi milliy davlatlar va xalqlarning, madaniyatlarning shakllanishi, tillarning vujudga kelishi, davlatchilik munosabatlarining takomillashuvi, madaniyatlarning yuksalishi kabi holatlar bilan izohlanadi. Davlat, huquq, rasmiy din va cherkov o'rta asrlarda davrning hukmron tabaqasi hisoblangan feodallar tomonida turib, xalq ommasi uchun dushmanona kayfiyatda

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008, 97-bet.

bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan jamiyatning rivojida ayrim holatlarda muhim ta'sir ko'rsatdi.

Yevropadagi feodal davlatlar o'rta asrlarning turli bosqichida turli shakllarda namoyon bo'ladi: ilk feodal bosqichda – garchi yirik bo'lsa ham, ammo tarqoq davlatchilik munosabatlari (Karl Buyuk imperiyasiga o'xshash) xarakterlidir. X – XII asrlarda mayda siyosiy birlashmalar ko'rinishidagi – knyazliklar, grafliklar, gersogliklar va shu kabilar, ularning tepasida turgan shaxslar o'z qo'l ostidagilar ustidan ma'lum siyosiy hukmronlikka ega bo'lib, ba'zan rasman kuchsiz bo'lgan qirol hokimiyati ostida birlashgan davlatlar bo'lib, ko'proq bu davr tarixshunoslikda feodal tarqoqlik deb nomlanadi. XIII – XV asrlarga kelib Yevropaning aksariyat hududlarida davlatlarning markazlashuv jarayoni ro'y berib, asta – sekinlik bilan bu davlatchilik munosabatlari tabaqaviy monarxiya shakliga o'ta bordi, bunda kuchli qirollik hokimiyati mavjud bo'lsa ham, ammo qirollik hokimiyati albatta umumtabaqaviy vakillik yig'inlari, bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Istisno tariqasida aytish mumkinki, butun o'rta asrlar davomida faqatgina Vizantiyada kuchli markazlashgan davlatchilik munosabatlari, ya'ni kuchli imperatorlik hokimiyati saqlanib qolgan. Nihoyat so'nggi o'rta asrlar davriga kelganda feodal davlatchilik anchayin markazlashgan formaga – mutloq monarxiyaga aylana bordi.

Yevropaning deyarli barcha davlatlarida o'rta asrlarda jamiyatda ijtimoiy jihatdan qatlamlarga bo'lingan tabaqalarni uchratish mumkin. Ular davlat hayotidagi mavqeidan kelib chiqib mavqelariga qarab hukmron sinfnings iyerarxiya zinapoyasiga taqsimlangan. O'rta asrlarning asosiy ijtimoiy sinfi sifatida shakllangan dunyoviy va diniy feodallar bu tabaqalarning birinchisiga mansub bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tabaqa ulardan mavqelari pastda bo'lgan dvoryanlar va shunga yaqin ijtimoiy guruhlar kirgan. Ana shu tabaqalardan tashqari ayrim davlatlarda uchinchi tabaqa sifatida shaharliklar va erki qo'lida bo'lgan ritsarlar, savdogarlar kabi ijtimoiy guruhlariga kiruvchi tabaqalar ham uchraydi.

Yevropa o'rta asrlar tarixining ajralmas bir qismi bo'lgan tabaqaviy monarxiya aslida qirol hokimiyatining davlatda mavjudligini anglatgani holda,

uning boshqaruvida tabaqalarning ishtirok etishini anglatadi. Bitiruv – malakaviy ishi sifatida tadqiq etilgan bu mavzu o'rta asrlar Yevropada davlatchilik munosabatlari taraqqiyotida ma'lum bir o'rin egallagan umumtabaqaviy muassasalar tarixiga bag'ishlanadi. Bunda faoliyat funksiyasi jihatidan bir – biriga yaqin bo'lgan Fransiya General shtatlarini va Ispaniya korteslarini oldik. Aynan ikki davlatdagi bu umumtabaqaviy muassasalarning mazmun mohiyati (ularda ishtirok etuvchi tabaqalarni hisobga olmaganda) qaysidir jihatdan o'zaro o'xshashdir. Birinchidan, har ikkala muassasalar ham qirolga soliq to'plashga ruxsat bergan. Undan tashqari ba'zi muhim vaqtlarda qirolga muxolifat ko'rinishini ham kasb etgan. Ammo to'laligicha Angliyadagi parlament singari doimo qirolni o'zi bilan hisoblashishga majbur etolmagan. Yana bir tomondan olib qaraganda, mutloq monarxiya tartibotining Ispaniya va Fransiyada qaror topishi bilan amalda umumtabaqaviy muassasalarning nufuzi to'lig'icha tushib ketdi. Shunday bo'lsa ham shungacha bo'lgan davrda Ispaniya va Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida umumtabaqaviy muassasalarning o'rni va roli bo'lgan. Tadqiqot ishida o'rta asrlar Yevropa ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotida umumtabaqaviy muassasalarning o'rnini Ispaniya va Fransiya misolida ko'rsatib berishdan iborat. Qolaversa, bu borada maxsus qilingan ishlar yo'q.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi o'rta asrlar Yevropa tarixida umumtabaqaviy muassasalarning o'rni va roli qanday bo'lganligini Fransiyada General Shtatlar misolida Ispaniyada korteslar misolida ko'rsatib va yoritib berishdan iboratdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'rta asrlar Fransiya tarixida muhim o'rin egallagan General shtatlarning faoliyati, umuman Fransiya tabaqaviy monarxiyasi bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ular orasida biz olim N.A.Xachaturyanni alohida ko'rsatish mumkin. Uni biz bemalol o'rta asrlar Fransiyadagi tabaqaviy monarxiya va General shtatlar tarixining chuqur bilimdoni desak ham bo'laveradi. Bu mavzuga bag'ishlab N.A.Xachaturyan ikkita keng

qamrovli asar e'lon qildi.² Har ikki asar bir – birini mazmunan to'ldiradi. Birinchi asarda ochib berilmagan va yetarlicha o'rganilmagan jihatlar keyingi kitobda o'z aksini topdi. Muallifning asosiy yutug'i shundaki, u fransuz tilidagi keng qamrovli tarixiy manbalardan foydalangan. O'rta asrlar Fransiyada umumtabaqaviy muassasalarning faoliyati yuzasidan alohida ishlarni K. I. Batyrning «Istoriya feodalnogo gosudarstva Fransii», N.A. Denisova «K voprusu o politicheskoy roli gorojan v Generalnix shtatax Fransii nachala XIV v.» A.D.Lyublinskayalarning³ qator ishlarida ko'rish mumkin.

O'rta asrlar Fransiya tarixidan farqli ravishda Ispaniyada umumtabaqaviy muassasalar bo'lgan korteslar tarixi bo'yicha alohida ilmiy izlanishlar rus mediyevistikasida amalga oshirilgan emas. Shunday bo'lsada bu borada qilingan ayrim ishlar mazmun mohiyati jihatidan yuqori saviyaga arziydi. Ayniqsa ispan tarixchisi Altamira-i-Krevea Rafaelning «Ispaniya tarixi» asari nafaqat Pireney yarim orolining ijtimoiy- iqtisodiy tarixiga bag'ishlangan, balki siyosiy tarixining mukammal yoritilganligi bilan ham ajralib turadi. Asarning birinchi kitobida muallif to yagona ispan davlati tashkil topgunga qadar bo'lgan vaqt ichida mavjud bo'lgan Pireney yarim orolidagi xristian davlatlari korteslarini alohida – alohida yoritib beradi.

O'rta asrlar Ispaniya tarixining yana bir mutaxassisi A.R.Korsunskiy o'zining IX – XIII asrlardagi Ispaniya tarixiga oid asarida ham Asturo-Leon va Leon-Kastiliya qirolliklarining iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini tahlil qilar ekan, shu davrda faoliyat ko'rsatgan korteslarga alohida bo'limni ajratadi.⁴ O'rta asrlarda Kastiliya korteslari va dehqonlar ahvoli masalasi bo'yicha ilmiy maqolani I.S.Pichugina «O'rta asrlarda Yevropa» to'plamiga taqdim etgan. Unda muallif ko'proq korteslarda dehqonlar masalasining muhokama e'tilishiga e'tibor qaratadi.

² Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976; Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989.

³ Люблинская А. Д. Структура сословного представительства в средневековой Франции, ВИ, 1972, вып. 1; Франция в начале XVII века (1610-1620 гг.). Л., 1959; Франция при Ришелье. Французский абсолютизм в 1630-1642 гг. Л., 1982.

⁴ Корсунский А.Р. История Испании IX – XIII веков (социально экономические отношения и политический строй Астура-Леонского и Леона-Кастильского королевства). М., «Высшая школа», 1976.

Mavzuga bevosita aloqador bo'lgan ma'lumotlarni shuningdek o'rta asrlar tarixidan ma'lumot beruvchi qator darslik, manbalar majmuasi kabi adabiyotlardan olildin. Qolaversa, mavzuga yaqin ishlarni internet rusurslaridan ham topishga harakat qildik. Ammo topilgan barcha ishlar biz foydalangan kitoblarning elektron nusxalari bo'lganligi bois ulardan ko'p o'rinlarda foydalanishni joiz topmadik.

I-BOB. O'RTA ASRLAR FRANSIYA TARIXIDA UMUMTABAQAVIY MUASSASALAR

I.1. Fransiya umumtabaqaviy muassasalarning shakllanish tarixi (General shtatlargacha)

843-yildagi Verden shartnomasidan boshlab rasman Fransiya deb atalgan davlatning mustaqil tarixi boshlanadi. To'g'ri, tarixshunoslikda bu masalaga sal boshqacha yondoshiladi. Ilk bora «Fransiya» degan atama eramizning VI-asrlarida Maas va Sheld havzasi hududlariga nisbatan zamondoshlari tomonidan ishlatilgan. Verden shartnomasiga muvofiq g'arbiy franklar yerining egasiga aylangan Karl Yaltiroqbosh davridan boshlab eski fransuz tilidagi yodgorliklar yaratila boshlangan. Umuman olganda, bugungi kunda Fransiya deb atalmish davlat hududidagi insoniyat tarixida qanday jarayonlar kechmasin, ularning barchasini mazkur davlat tarixi deb hisoblash mumkin.

G'arbiy Yevropa ijtimoiy – iqtisodiy tarixiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu feodalizmdir. Feodalizm, ya'ni yirik yer egaligi va u yerda qaram dehqonlarning ekspluatasiya qilinishi, shartli ravishda uch boqichga bo'lib o'rganiladi. Bular feodalizmning shakllanishi, rivojlangan davri va tanazzuli davrlaridir. Feodalizm ko'proq iqtisodiy munosabatlar tizimini anglatuvchi tushunchaga yaqin bo'lsa ham, ammo u ma'lum darajada davlatchilik munosabatlari taraqqiyotida, ta'bir joiz bo'lsa bugunki kun davlatchilik boshqaruviga sezilarli ta'sir o'tkazgan alohida hamiyatga egadir. Ya'ni feodalizmni faqatgina ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar deb atash ham to'g'riroq bo'lmaydi.

Feodalizm davri ham ma'lum bir boshqaruvni, yetakchilikni va siyosatni talab etadigan bir davrdir. Garchi feodal – yirik yer egasi o'z mulkining xo'jayini bo'lishiga qaramasdan, ma'lum vaqtlar o'tishi bilan u o'zidan katta shunday tabaqadagi shaxsning – qirolning vassaliga aylandi. Vassallik munosabati shunday yo'lga qo'yildiki, feodalizmning rivojlangan davrida yirik yer egasi davlatni boshqarishda ishtirok etadigan bo'ldi. Ya'ni davlat hukmdori o'z hududidagi yirik yer egalarining, qolaversa boshqa yuqori tabaqa vakillarining ba'zan maslahati

bilan, ba'zan mustaqil tarzda ularning maslahatisiz davlatni boshqarishga xarakat qilgan. O'z nufuzi va ta'sirini saqlab qolishga uringan yuqori tabaqa vakillari qanday bo'lmasin davlat boshqaruvida ishtirok etishga xarakat qilib kelishgan. Natijada Yevropaning o'rta asrlar davlatlarining ayrimlarida tabaqaviy boshqaruvli monarxiya tartibi amalda bo'lib keldi. Tabaqaviy monarxiya yoki tabaqaviy hukumatli feodal monarxiyasi siyosiy markazlashuv jarayonida yuzaga kelgan feodal davlatchilik shaklaridan biridir. Bu bosqichda davlatning siyosiy evolyuziyasi oldingi davrlarga solishtirganda mutloqo boshqacha bir ko'rinishni namoyon etdi. Aynan fransuz variantidagi tabaqaviy monarxiyani o'rganish bizga tabaqaviy monarxiyaning tipologik tahlilini qilish imkonini beradi.

Fransiyada umumtabaqaviy muassasalarning shakllanishi va paydo bo'lishi bevosita u yerda hukm surgan tabaqaviy monarxiya tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Mediyevistikada fransuz tabaqaviy monarxiya tarixi garchi umumiy tarzda o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, uning davlat hayotida o'rni masalasiga kam murojaat qilingan. Qilingan ishlarda ko'pincha tabaqaviy monarxiyaning umumiy xususiyatlari, uning tuzilmasi, shakllantirilishi masalalari ochib berilgan bo'lishiga qaramasdan, umumtabaqaviy muassasalar o'rta asrlar Fransiya tarixida qanday rol o'ynaganligi masalasi ko'p hollarda ochiq qoldirilgan.

Umuman mavzuga bevosita turdosh bo'lgan ilmiy izlanish va shu sohaga yaqin bo'lgan dastlabki ishlar XIX – asrda, burjuaziya tarixshunosligi deb ataladigan davrdan boshlandi, deb hisoblash mumkin. Bu davrda X asrdan to XV asrgacha bo'lgan Fransiyaning ijtimoiy – siyosiy tarixi konsepsiyasi yaratildi. Uning asosida davlatni markazlashtiruv jarayoni turdi. Shundan kelib chiqib bu davr tarixchilari ko'proq e'tiborni bu jarayondagi shaharlarning roliga, feodalizmning siyosiy – huquqiy tushunchasiga, umumjamiyat tinchligi va ijtimoiy komillikni ta'minlovchi tashkilot sifatida davlatni idellashtirishga qaratishdi. Jumladan, O. Tyerri, F. Gizo, A. Jiri, J. Piko, A. Se va boshqalar ishlarida shunday yondoshlarni kuzatish mumkin. Burjua tarixchilari garchi umumtabaqaviy muassasalar sifatida Fransiyaning o'rta asrlar oliy sud organi bo'lgan Parij Parlamenti va tabaqaviy organ – General Shtatlar tarixiga murojaat qilishgan

bo'lishsa ham ularning davlat boshqaruvida imkoniyatlari cheklanganligini e'tirof etib o'tishadi.⁵ Shuning uchun ham XIII – XV asrlar davlatchilik tarixiga nisbatan «cheklangan» yoki «vakillik» monarxiyasi degan tushuncha qo'llaniladi.⁶

Rus tarixshunosligida o'tgan asrlar davomida fransuzshunos olimlar tomonidan mazkur masala bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borildi. Agar Ye.V.Gutnova tomonidan Angliya tarixi va unda tabaqaviy monarxiyaning shakllanishi tarixini o'rganishni boshlab berganidan so'ng, shu sohaga yaqin ishlarni uning shogirdlari Yu.I.Pisarev, T.S.Fedorova, P.A.Leonova kabilar davom ettirishdi. Fransiyada tabaqaviy monarxiyaning alohida jihatlarini ilmiy tomondan tadqiq etishda N.A.Sidorova, A.D.Lyublinskaya, N.I.Xachaturyanlarning xizmati beqiyos.

Mazkur mavzuni o'rganish davomida turli ilmiy adabiyotlarda topishimiz mumkin bo'lgan quyidagi manbalar o'rganildi:

I. XIII-XV asrlarga oid fransuz monarxiyasining ordonanslari, qonunchilik hujjatlarining katta qismi.

II. Yuridik xarakaterdagi materiallar.

III. Umumtabaqaviy muassasa bo'lgan General Shtatlar yig'ilishi materiallari. Mavzu doiramiz ko'proq ana shu tashkilot tomonidan qabul qilingan hujjatlar bilan bog'liq. Ko'p hollarda Bosh Shtatlar tomonidan chiqarilgan ordonanslar va boshqa hujjatlar qirol qonunchiligi bilan teng bo'lgan. Masalan, 1357-yilgi Buyuk iart ordonansi, 1448-yilgi ordonanslar so'zimizning isboti bo'lishi mumkin.

IV. Narrativ materiallar. Ularning ko'pchiligi xronika ko'rinishidagi asarlar bo'lib, o'rta asrlar Fransiyada kechgan ujtimoiy – iqtisodiy va siyosiy voqeyeliklar haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.⁷

Fransiyada umumtabaqaviy muassasalarning paydo bo'lish tarixini ochib berishdan oldin umumtabaqaviy monarxiya tushunchasiga biroz izoh berib o'tsak. Umumtabaqaviy monarxiya yoki oddiy qilib ytganda tabaqaviy monarxiya – bu

⁵ Конокотин А. В. Расслоение крестьянства и обострение классовой борьбы во французской деревне XIII в. УЗ. МГПИ.1954, 68 вып. 4., с. 100-101

⁶ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII-XV вв., М., 1989, с. 83

⁷ Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. В 3-х томах. Т 2.М. 1961, С.64-71.

o'z qo'lida davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarini ushlab turgan kuchli qiroolik hokimiyati mavjud bo'lgan bir sharoitda ular huzurida maslahatchi, moliya (soliqlar bo'yicha), va qisman qonunchilik funksiyasini bajaruvchi umumtabaqalar yig'ilishi mavjud bo'lgan feodal davlat shakllaridan biridir. Umumtabaqaviy monarxiya o'rta asrlar Yevropasining ko'pchilik mamlakatlari uchun xos tushuncha hisoblanadi. Masalan, Angliya va Ispaniya tarixining XIII-XV asrlari, Fransiyaning XIV-XV asrlar tarixi, Vengriya, Chexiyaning XIV-XVII asrlar, Polshaning XV-XVII asrlar, Daniyaning XIV-XVII asrlar, Markazlashgan Rus davlatining XVI-XVII asrlar tarixi tabaqaviy monarxiya davri sifatida qaraladi.⁸

Davlatlarning markazlashuv jarayonida paydo bo'la boshlagan tabaqaviy monarxiyaning yuzaga kelish omillari sifatida ichki bozorlarning vujudga kelishi natijasida shaharlar o'sishining boshlanishini, dehqonlarning feodal ekspluatsiyasi kuchayishi bilan bog'liq ravishda sinfiy kurashning keskinlashuvini ko'rsatish mumkin. Tabaqaviy monarxiyaning asosiy tayanchlarini birinchi navbatda quyi va o'rta qatlam feodallari tashkil etdiki, bunda ularga dehqonlar ustidan avvalgi hukmronligini saqlab qolish va mustahkamlash uchun kuchli markazlashgan boshqaruv apparati zarur edi. Tabaqaviy monarxiyani, shuningdek, shaharliklar ham qo'llab – quvvatlashdi. Shaharliklarni bu ishga bosh qo'shishiga sabab ular shu yo'l orqali feodal tarqoqlikni tugatish va uning natijasida ichki bozorning rivojlanishi uchun xizmat qiladigan savdo yo'llari havfsizligini ta'minlamoqchi edilar. Bu davrda davlatning markazlashuv jarayoni kuchayib ketdiki, bu hol feodal jamiyatning oldingi iqtisodiy rivojlanishini rad etdi. Tabaqaviy monarxiya shaklidagi davlatning markazlashuv jarayoni qirolning qo'lida sud va harbiy hokimiyatning to'planishida, yirik feodallarning siyosiy mustaqilligi tanazzulida, umumdavlat qonunchiligi va soliq munosabatlari taraqqiyotida, davlat apparatining yuksala boshlashida namoyon bo'ldi. Markazlashgan davlat ma'lum miqdordagi moliyaviy harajatlarni talab etar ediki, o'rta asrlar sharoitida bu pul mablag'i odatda feodal rentasining pul ko'rinishida solig'i tushumidan iborat bo'lgan.

⁸ Большая советская энциклопедия. Под редакцией Б. А. Введенского, Т. 40, М. АН СССР, 1956, С.304-308

Ammo markazlashgan davlat davlat kengashi va feodallarning roziligini olmasdan turib asosiy soliq to'lovchi omma – dehqonlar va shaharliklardan soliq yig'ishtirib ololmas edi. Aynan shu holat bilan Yevropa mamlakatlarining aksariyatida tabaqaviy monarxiyaning – umumdavlat miqyosidagi yig'ilishlarning paydo bo'lish jarayoni izohlanadi. General Shtatlar – Fransiyada; parlament – Angliyada; korteslar – Ispaniyada; riksdag – Shvesiyada; imperiya seymi – Germaniyada; seymalar – Polsha, Chexiya va Vengriyada; zemstvo soborlari – Rus davlatida.

Shu kabi umumtabaqaviy muassasalarning asosini tashkil etuvchi tabaqalar o'zida iqtisodiy va huquqiy jihatdan farqlanib turuvchi odamlarning jamoaviy guruhini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tabaqaviy taqsimot asosida jamiyatning sinfiy tabaqalanishi yotadi. Tabaqalarning o'ziga xos tomonlari sifatida ma'lum huquq va majburiyatlarning tabaqalarga birlashtirilib qo'yilganligini, tabaqaviy birlashtirish, tabaqaviy imtiyozlarning merosiy olishi, yuqori tabaqa vakillarining imtiyozli holatini kiritish mumkin.

Ayniqsa feodalizm sharoitida Yevropada jamiyatning tabaqaviy taqsimotini yaqqolroq kuzatish mumkin. O'rta asrlar Yevropa jamiyatida tabaqalar odatda ikki guruhga, ya'ni «oliy» imtiyozli va «quyi» imtiyozsiz guruhlarga bo'lingan. «Yuqori» imtiyozli tabaqaning mutloqo ko'pchiligini hukmron qatlam, feodalalar guruhi tashkil etgan. Imtiyozli tabaqalar xar bir mamlakatda aholining juda oz qismini qamrab olgan. Bunday «yuqori» imtiyozli tabaqani ruhoniylar va dvoryanlar tashkil etib, ularga ma'lum bir imtiyozlar birlashtirilgan edi, ya'ni ularning katta qismi soliqlardan (yoki boshqa majburiy imtiyozlardan), boshqa ko'rinishdagi daxlsizlik huquqlaridan foydalanishgan. Shuning uchun ham tabaqaviy monarxiya sharoitida «yuqori» tabaqa vakillari hukmron mavqeda bo'lib, umumtabaqaviy muassasalar yig'ilishlarida hal qiluvchi ovozga ega bo'lishgan hamda davlat siyosatiga sezilarli ta'sir o'tkazishgan. Dvoryanlar tabaqasi o'z navbatida yana bir necha kategoriyalarga bo'lingan, masalan, baronlar va ritsarlar – Angliyada, gradlar va idalgolar – Ispaniyada, graflar va gersoglar – Fransiyada. «Quyi» tabaqa vakillari o'zlarining asosiy majburiyati bo'lgan soliq to'lash bo'lganligi uchun ham ko'pincha soliq to'lovchilar ham deb atalgan. Ular

orasida dehqonlar qatlami eng ko'p feodal majburiyatlarga giriftor etilgan edi. O'zlarini dvoryanlarning, ruhoniylar va shaharliklarning oliy qatlam vakillari deb atovchi umumtabaqaviy muassasalar hech bir mamlakatda xalq hukumati organi bo'la olmadi. Buning ustiga ular qirol hokimiyatini qo'llab – quvvatlar edi, birinchi navbatda feodallar manfaatidan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Shaharliklar vakillari bo'lsa bu muassasalarda ikkinchi darajali ro'lga ega bo'lib, ko'pincha ular shaharlardan olinadigan soliqlarga qarshi tura olishgan, hukumatdan mazkur soliqlarni olishda yengilliklarga erishganlar xolos.

XIV – XVII asrlarda Yevropaning aksariyat feodal davlatlarida yuqoridagi uchta tabaqa vakillari qirol tomonidan chaqirilgan va asosan soliq siyosati, urush va tinchlik masalalari ko'riladigan qonunchilik – maslahat organi yig'ilishida ishtirok etgan. Ammo hukmdorlar uchun organning qarori majburiy bo'lmagan. Yirik feodallar hokimiyati odatda mana shunday umumtabaqaviy muassasalar yig'ilishlarida bevosita o'zlari ishtirok etgan bo'lishsa, o'rta va mayda dvoryanlar qatlami, shuningdek shaharliklar ularga o'zlarining vakillarini (delegatlarini) yuborgan. Aholining asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlar bunday organlarda ishtirok etishdan mahrum etilgan edi.

Fransiyada markazlashuv jarayoni va tabaqaviy monarxiyaning shakllanishi butun Yevropada bo'lgani singari uzoq muddatni qamrab oldiki, bu muddat ichida yirik yer eagariga qarshi kurashib kelgan markaziy hokimiyat ular oldida o'jizligini, ular ustidan o'z hokimiyatini saqlab qola olmasligini, feodalga qaram bo'lib qolgan dehqonlarga nisbatan noiqtisodiy munosabatlarni ta'minlay olmasligini namoyon etdi. Ana shu o'rta asrlar uchun anchagina murakkab bo'lgan masalani hal etishni feodallar sinfi, asosan ularning yirik vakillari o'z bo'yniga olishdi.

Rivojlangan feodalizm davridagi feodal munosabatlar taraqqiyoti va feodal tartiblardagi chuqur o'zgarishlar qirollik hokimiyatining mustaqilligini yo to'liq yo'q qilishi mumkin edi yoki markazlashuv jarayoni g'alaba qozonishiga olib kelishi mumkin edi. Ana shu ikki variantdan Yevropa mamlakatlari ichida Fransiya uchun ko'proq ikkinchisi tegishlidir. Fransiyada markazlashuv jarayonining ilk

bosqichlarida qirollik hokimiyati qiyin bir davrni boshidan kechirdiki, uni o'tish bosqichi sifatida qarash kerak. Ular orasida hukmron sulolaning cheklangan moddiy imkoniyatlari va yirik yer egaligi bilan chambarchas bog'liqligi siyosiy avtonomiya uchun qulay zamin bo'lib xizmat qildi. Kapetinglar domen Sena va Luvr orlag'idagi ensiz bo'lgan hududdan iborat bo'lib, Kompyendan to Orleangacha cho'zilgan edi va har tarafdin feodal knyazliklar bo'lmish Normandiya gersogligi, Burgundiya, Bretan, Shampin garfliklari bilan qurshab olingan ediki, XII asr sharoitida ularning yeri rasman qirollik xududidan bir necha barobar ko'proq edi.⁹

XIII – XIV asrlarda Fransiyada sodir bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy ziddiyatlarning markazida ko'proq katta yer egasi bilan qaram dehqonlar turdi. Shu bilan birgalikda aynan shu holatda qirollikning markazlashuv siyosati davom etdi. Agar dehqonlar qatlamining noroziligiga ko'proq ularga nisbatan yuritilayotgan adolatsiz soliq siyosati, ijara tartiblaridagi qonunsizliklar, feodal majburiyatlarning og'irlashib borishi kabilar sabab bo'lgan bo'lsa, feodallar qatlamining o'zida ham norozilik kurtaklari paydo bo'la boshlayotgan edi. Mayda va o'rta feodallar qatlami vassallik munosabati sharoitida ikkita yo'lning birini tanlashi lozim edi. Ulardan birinchisi qirol vassali sifatida uning harbiy majburiyatini bajarib berish, yoki o'zidan yirikroq bo'lgan boshqa bir feodalning qo'lida xizmat qilish.

Shaharliklarning markazlashgan hokimiyat bilan munosabatlari ham o'ziga xos edi. Ayniqsa o'rganilayotgan davrga kelganda o'rtadagi munosabatlarda ziddiyatli holatlar ko'proq sodir bo'la boshladi. Qirollik hokimiyati shaharlarni moliyaviy ko'makchi deb qarar edi va ular o'rtasidagi ittifoqchilik ham ko'proq pul manfaati bilan bog'ilq ravishda zaif bo'lgan. Davlatda vujudga kelgan moliyaviy va iqtisodiy tanglik sharoitida qirol hokimiyati shaharlardan ham ko'proq pul yig'ish istagidaligini ko'rsatib qo'ydi. Natijada qirollik hokimiyati zo'r berib ularni kommunal imtyozlaridan mahrum etish uchun urinish boshlandi.

Qirollik hokimiyatining markazlashuvi bilan ayni vaqtda tabaqalarning ham siyosiy kuch sifatida shakllanishi amalga oshib bordi. Ayniqsa shaharliklar ichida

⁹ Батыр К. И. История феодального государства Франции, М. 1975, С. 45-46

siyosiy faollik ko'proq namoyon bo'la boshladi. Ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklar tabaqalari viloyatlarda o'z imtiyozlarini saqlab qolish uchun zo'r berib harakat qilishdi. Ularning imtiyozlari ko'pincha yozma xartiyalarda mustahkamlanib qo'yildi. Umuman olib qaraganda tabaqaviy vakillik boshqaruvining ilk ko'rinishi XII asrlardan kuzatila boshlansa, XIII asrlarga kelganda shakllanib bo'lgan edi. Fransiyada qirollik hokimiyati monarxiyaning ayrim unsurlari bo'lgan sud, soliq va harbiy ishlarni to'la saqlab qolishga ko'zi yetmagach, ularni bo'lishishni yirik votchina egalari bilan emas, balki tabaqalar bilan taqsimlashni xohladi. Oliy suverenitetiga davogar bo'lgan qirollik hokimiyati bularni amalga oshirish uchun yetarli imkoniyatga ega emasligi sabab, ko'pincha tabaqaviy vakilliklardan pul, harbiy va siyosiy yordam so'rashga majbur bo'lgan. Aytish mumkinki joylarda bunday organlar cheklangan bo'lsada, ammo mustaqil faoliyat olib borgan.¹⁰

To Fransiyada General Shtatlar rasman chaqirilgunga qadar joylarda mahalliy vakillik organlari faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. General shtatlar chaqirilishi arafasida ular ham siyosiy faollik ko'rsatgan edilar. Masalan, Agkene, Kersi grafliklaridagi, Tuluza, Karkasson va Boner seneshalligidagi baronlar, ritsarlar va konsullar assambleyasi XIII asr o'rtalaridayoq mashxur edi.¹¹

Bu mahalliy shtatlar gersoglar (yoki boshqa mahalliy boshqaruvchilar) tomonidan faqat o'z vassalalarini, balki o'ziga bevosita vassal hisoblanmagan risarlar va shaharliklar vakillarining muntazam chaqirilib turilishi orqali faoliyati yo'lga qo'yilgan. Gersoglarning bunday yo'l tutishiga sabab o'sib borayotgan shaharliklar va ritsarlar kuchini nazoratda ushlab turish bo'lgan. Bunday yig'ilishlarda ritsarlar o'zlari ishtirok etgan bo'lishsa, shaharliklar o'z merini yuborgan, ruhoniylar tabaqasidan yepiskoplar, abbatlar va cherkov kapitullari dekanlari ishtirok etishgan. Yig'ilishda moliyaviy yordam – aide masalasi ko'proq ko'rilgan. Bu atama aslida ritsarning vassallik majburiyati tushunchasini anglatgan. Haqiqatda olib qaraganda bu soliqni barcha qishloq va shahar aholisi to'lagan va

¹⁰ История средних веков. Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова. в 2-х томах. Т.1.,М., 1990, С.241

¹¹ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.71

soliq sen'orlar (diniy va dunyoviy) hamda shahar hokimiyati tomonidan olingan. Shu tariqa feodallar o'zlari soliq to'lamagan, balki o'zlarining «qo'l – ostidagilardan» soliq olinishiga rozilik bildirishgan va bunday pul yig'ib berish xizmati evaziga uning ma'lum qismini o'zlari tasarrufida saqlab qolgan. Bu hol davlat soliq siyosatining provinsiyalar doirasida amalda bo'lgan o'ziga xos bir shakli bo'lib, gersog yoki graf o'z hududi aholisining cho'ntagiga bevosita qo'l solmasdan balki vositachilar orqali bu ishni amalga oshirganlar. Haqiqiy davlat soliqlari deb ataluvchi soliqlar paydo bo'lgandan keyin, ya'ni XIV asrlardan boshlab, endi dvoryanlar va cherkovlardan vositachilik rolini bajarib berish so'ralmay qo'ydi, ular bu vaziyatda ham ustamonlik qilib, soliq immunitetiga ega bo'lib olishdi.¹²

XIII asr oxirlariga borganda Provans va Flandriyada ham paydo bo'la boshladi. Dofin, Bigor, Burgundiya, Bretan, Bearn, Akvitaniya, Armanyak, viloyatlaridagi assambleyalar, shuningdek Langedokdagi diniy shtatlar doimiy ish faoliyatiga XIV–XV asrlar davomida o'tishgan.¹³

XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridagi Fransiyaning ijtimoiy – siyosiy taraqqiyoti tarixini taxlil qilar ekansiz, u holda faqatgina tabaqaviy vakillarning umumdavlat organlari shakllanishga zaruriyat paydo bo'lganidan tashqari, qirol hokimyatining ham shunday yig'ilishlarni chaqarishda tashabbuskor bo'lganligini ko'rsatadi. Bu davrdagi tabaqalarning faolligiga provinsiyalardagi separatistik harakatlar yo'l qo'ymagan, qaysiki bu harakatlar 1314-1315 – yillarning provinsial (viloyat-hududiy) xartiyalarida o'z aksini yaqqolroq topgan. Prvinsiyalarning separatistik harakatlari ijtimoiy muammolarning o'sishiga sababchi bo'lib, butun mamlakat miqyosida tabaqalarning birlashuvini sekinlashtirgan.

O'rta asrlardagi yirik yer egalari singari Fransiya hali qirollik hokimiyati to'la mustahkamlanib ulgurmasdan oldin hukmdorlar o'z hokimiyatini ma'lum ma'noda vassallari bilan bo'lishgan va qirollik kuriyasi (curia-saroy) deb nomlangan. Oddiy feodallar kuriyasidan farqli ravishda qirol bu yerda qirollikning

¹² История Франции. Ред колл. Т.1., М., 1972, С.107.

¹³ Люблинская А. Д. Структура сословного представительства в средневековой Франции, ВИ, 1972, вып. 1, С. 22-24

oliy suverenitet egasi sifatida namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham bu kuriya tarkibiga qirolga sodiqlik to'g'risida qasam ichgan barcha vassallar (yer egalari) kirgan. Sh. Pti – Dyutayi fikricha qirollik kuriyasi ayni vaqtda qirol hokimyatining qudrati manbaiga xizmat qilgan, chunki ular qirolning u yoki bu tadbirini qo'llab – quvvatlab qolmasdan, balki ularning bajarilishi kafolatchisi-garovi ham bo'lishgan.¹⁴ Qirol kuriyasi assambleyalarining dastlabki vaqtlarda chaqirishi davriy bo'lmagan va muntazam chaqirilmagan, urush va sulh masalalarini hal etishda salib yurishi bo'yicha chaqirilgan. Lyudovik VII hukmronligi davrida bu yig'ilishlarga shaharliklar vakillari ham chaqiriladigan bo'ldi. III salib yurishiga ketishdan oldin Filipp II Avgust qirollik hukumatiga qirollik domenidagi shaharlar vakillarini Qirollik Kengashiga jalb qilishga buyruq beradi. Shu tariqa asta – sekinlik bilan dastlab maslahat kengashi vazifasini bajaruvchi yig'ilishlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organlarga – Qirollik kengashi va parlamentga aylana borgan.bu maslahat assambleyalari alohida bir nom bilan atash uchun yetarli darajada murakkab institutga aylanmadi.

Assambleyalar to 1230-yilgacha «consilium generalis», «conventus», «colloquium» deb nomlanib, undan keyin «parlamentum» degan nom oldi. Amerikalik tadqiqotchilarning fikricha, bu parlamentlar qirol tomonidan umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalarda maslahat olish uchun maxsus tarzda chaqirilgan yirik va mayda dunyoviy va diniy feodallardan iborat yig'ilish bo'lgan. Xronikalarda keltirilishicha, tarkibi ko'p sonli va xilma xil bo'lgan bu yig'ilishlarda «barcha arxiyepiskoplar, abbatlar va baronlar» ishtirok etgan va konsultativ xarakter kasb etgan. 1179-yildan to 1230-yilgacha chaqirilgan assambleyalardan 16 tasi «concilium» atamasi bilan qo'llanilgan.¹⁵

Shunday qilib kapetinglar davri Fransiyasida asta – sekinlik bilan umumdavlat miqyosidagi umutabaqaviy organ hisoblangan General shtatlarning paydo bo'lishiga qadar shunga o'xshash organlar viloyatlarda, shuningdek qirollik saroyida faolyait ko'rsatib kelgan. Qirollar ayrim masalalarda o'zlariga yon

¹⁴ Пти-Дютайи Шарль. Феодалная монархия во Франции и в Англии. X-XIII веков. Пер. с франц. М., 1938, С.206-207.

¹⁵ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.76

bosadigan kuchga – tayanchga ega bo'lish maqsadida bunday yig'ilishlarga shaharliklar vakillarini kiritib boshladiki, oqibatda ular kelgusidagi General shtatlar tarkibidagi asosiy tabaqalardan biriga aylandi.

1.2. General shtatlarning chaqirilishi va uning mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotidagi roli

Filipp IV davriga kelib Fransiya qirolik hokimiyatining kuchayishi uni birinchi navbatda yirik diniy feodal hisoblanuvchi cherkov bilan to'qnashtirdi. Qator dunyoviy feodallar qarshiligini yenga olgan qirol uchun endi cherkovning ham ta'sirini tushirish eng muhim masala edi. O'rtadagi keskinlikka qirolning cherkov yerlaridan soliq undirishga intilishi bahona bo'lib xizmat qildi.

Tarixshunoslikda 1302-yilda Fransiya qiroli Filipp IV tomonidan chaqirilgan tabaqaviy vakillardan iborat kengashning aynan General Shtatlar deb nomlanishi borasida qarama – qarshi fikrlar mavjud. Chunki ungacha ham qirol huzurida shu kabi yig'ilishlar chaqirilib turganligini yuqorida aytgan edik. Ulardan bu General Shtatlarning katta farqi shunda ediki, unda birinchi marta bunday yig'ilishga butun davlat masshtabida uchta tabaqa vakillari qirol tomonidan chaqirildi. Ya'ni bungacha bunday keng masshtabdagi yig'ilish o'tkazilmagan. Shuning uchun ham shartli ravishda mazkur sanadan boshlab Fransiya tarixida umumtabaqaviy organ vazifasini yangi zamon davrigacha bajarib kelgan General Shtatlar o'z ishini boshlagan. F.Lot va F. Fantye kabi tadqiqotchilarning mulohazalariga ko'ra General shtatlar maqomidagi yig'ilishni 1484 – yilgi yig'ilishga nisbatan ishlatish o'rinlidir. Chunki uning ishida mamlakatning barcha provinsiyalari vakillari ishtirok etishgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, professor A.Maronju tomonidan 1484-yilgi yig'ilishga nisbatan «General shtatlar» atamasi qo'llanilgan.¹⁶

Umuman mazkur shtatlarning ish boshlashi uchun uchta tabaqa vakillari to'plandi. Qoidaga ko'ra tabaqalar balyalarga qarab chaqirilgan. Yirik diniy va dunyoviy feodallar shaxsan o'zlari assambleyalarga ishtirok etishlari shart bo'lgan. Shaharlar o'zlarining hokimiyatidan kelib chiqib 2,3 nafar deputatlar yuborishgan. Bunda aniq qancha miqdor bo'lishi kerakligi to'g'risida me'yorlar bo'lmagan. Ko'pincha mahalliy amaldorning tashabbusidan kelib – chiqib belgilangan.¹⁷

¹⁶ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.173.

¹⁷ <http://prioslav.ru/kursm19>

Tarixiy hujjatlarga murojaat qilinsa 1302 yildan to 1308 yilgacha chaqirilgan yig'ilishlar muntazam bo'lmay, balki bir necha marta, u ham bo'lsa cherkov masalasida chaqirilgan yig'ilishlardan iborat bo'lgan. 1302-yilning aprelida qirol uchta tabaqa vakillarini huzuriga chaqirgan bo'lsa, 1303-yilning martida chaqirilgan yig'ilish garchi ko'p sonli bo'lsada, ammo unda birinchi va ikkinchi tabaqa vakillari ishtirok etgan. Garchi yig'ilishga chaqiruv qog'ozlarida qirol muhokama qilinadigan masalalar barchaga taalluqligini aytgan bo'lsa ham, baribir prelat va baronlar bilan kengashib olish uqtirilgan edi. 1303-yilning iyunida chaqirilgan yig'ilishda ham shaharliklar vakillari qatnashmagan.

1303-yilning iyul oyida Filipp IV navbatdagi yig'ilishni chaqirmoqchi bo'lgan. Biroq bu fikridan voz kechib, buning o'rniga boshqa bir tadbir ishlab chiqdi, unga ko'ra o'z komissarlarini joylarga yuborib uning siyosatiga bo'lgan moyillikka erishmoqchi va qator provinsiyalarda mahalliy yig'ilishlarni chaqirishni reja qiladi. Monpelye, Nim, Kirkassonda uchta tabaqa vakillari chaqirilgan bo'lsa, 1308-yilda nihoyat Turda General shtatlar chaqirildi.¹⁸

Agar biz shartli ravishda 1302 – yildan to 1308 – yilgacha bo'lgan davrdagi General shtatlarning faoliyatini birinchi bosqich deb ataydigan bo'lsak, u holda uning ishida asosiy masala sifatida birinchi o'rinda qirolning papa bilan munosabati turganligining guvohi bo'lamiz. Ma'lumki 1296-yilda Rim papasi Bonifatsiy VIII dunyoviy hokimyat egalarining ruhoniylardan soliq olishlarini va ruhoniylarni bo'lsa papa roizligisiz soliq to'lashlarini ta'qiqladi. Fransiyadan o'sha vaqtda Rim papasi qarorgohiga faqatgina oltin va kumushning borishini bilgan Filipp IV davlat hududidan bu metallarning chiqishini man etdi. 1302-yilning 1-noyabrida Svoyadagi cherkov soborida Bonifatsiy VIII Fransiyaning ichki ishini muhokamaga qo'ydi va yana bir bor diniy hokimiyatning cherkov hokimiyatidan ustun ekanligini e'tirof etdi.

O'z navbatida Filipp IV papaning bu harakatlarini Fransiyaning ichki ishlariga qo'pol aralashish deb baholadi, qirollik legistlari tomonidan papani zolimlikda ayblovchi kampaniyani uyushtirdi. Bundan jahli chiqqan Rim papasi

¹⁸ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.79-80.

fransuz qirolining cherkovdan chetlashtirilganligi to'g'risida bulla chiqardi. O'rta asrlar sharoitida kishilarni boshqaruvchi kuchlardan biri din ekanligini yaxshi tushungan va bu hol oxir – oqibat monarxiyaga zarba bo'lishini anglagan qirol darhol umumtabaqviy kengash – General shtatlarni chaqirdi.

Masalaning eng muhim tomoni shunda ediki, Rim papasi va fransuz qirol o'rtasidagi kelishmovchilik sharoitida Fransiya'dagi ruhoniylar tabaqasi birinchi navbatda o'zlarining rahnomasi bo'lgan Rim papasining tarafini olishini sezgan qirol ma'lum darajada shu «muxolifatga» qarshi kurashda tayanch bo'lishi mumkin bo'lgan o'rta tabaqa – dvoryanlar va quyi tabaqa – shaharliklar vakillarini ham bir oraga to'plashga urindi va buni uddalay oldi.

Shu yillar ichida va undan keyin ham qirol tomonidan shu kabi yig'ilishlar chaqirilgan. Lekin ularni General shtatlar ko'rinishidagi umutabaqaviy kengash deb aytishimizga asos yo'q, qolaversa vakillardan tanlab olingan yig'ilish ekanligi to'g'risida ham hech narsa ma'lum emas. Bu kabi yig'ilishlarda, ular qirol huzuridagi keyinchalik chaqirala boshlangan notabllar kengashini eslatadi, qirol xar bir tabaqa bilan alohida «seperatik» uchrashuvlar o'tkazgan.

1303-yilning avgustida fransuz qirolining Amyen yepiskopiga yozgan Flandriya'dagi urush harajatlari uchun ruhoniylardan olinadigan ushr (desyatina) solig'i haqidagi maktubida keltirilishicha, bu tadbirga (favqulotda soliqqa) Parijda maxsus to'plangan arxiyepiskoplar va yepiskoplar kengashida ruxsat berilgan bo'lgan. Qolaversa harbiy majburiyatlar puli ham 1303-yilda shtatlar tomonidan tasdiqlangan.¹⁹

1304-yil 9-iyuldagi urush uchun soliq undirish to'g'risidagi buyruqda ham, ba masala ruhoniylar prelatlar va cherkov odamlari, gersoglar, graflar, baronlar va boshqa dvoryanlar yig'ilishida muhokama qilinganligi va unda qirolga yordam berishga qaror qilinganligi aytiladi.

Rim papasi bilan munosabatlarining yomonlashuvidan qirol foydalanib ruhoniylardan moliyaviy yordam olishga jazo etgan bo'lishi ham umkin. Tadqiqotchi K.Sulyaning fikricha, qirol chaqiruv – maktublarida kengashlarning

¹⁹ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.80.

juda ko'pchiligining chaqirilishi uchun sabab bo'ladigan moliyaviy yordam olish to'g'risidagi masalani yozishdan qochgan, bu bilan ruhoniylarning oldindan reaksiyaga tayyor bo'lib kelishining oldini olgan.

1306-yilgi tangalar to'g'risidagi ordonans ham preletlar, baronlar va «boshqa martabali kishilar», ya'ni shaharliklarning kengashidan so'ng e'lon qilingan. 1308-yilga kelganda tangalar muammosi har bir shahardan tangalar ishini biladigan 2-3 nafar notablarning chaqirilishi uchun asos bo'ldi. Bu manzara 1311-yilda ham takrorlanadi, tanga ustalarining maslahati bilan prelat, baron va xalq vakillari kengashidan tanga to'g'risida ordonans qabul qilindi. Nihoyat 1314-yil noyabrida bo'lib o'tgan navbatdagi assambleyada har bir tabaqadan vakillar ishtirok etdi (1 – noyabrdagi qirol buyrug'iga ko'ra 43 ta shaharlarning har biridan 2-3 nafar notabllar yuborilishi belgilangan edi). Ammo shu yilning 24-noyabr kuni qirolning vafot etishi assambleyada qabul qilingan loyiha hayotga tadbiiq etilmasligiga sabab bo'ldi.

1308-1309 – yillarda qirol ayrim provinsiyalarning (Kersi, Sentonj, Normandiya) tabaqalari vakillari (shu jumladan shaharliklar tabaqasi ham) bilan qizi Izabellaning nikoh to'yi munosabati bilan yig'iladigan ed solig'i bo'yicha muzokaralar olib borgan.²⁰

Shu tariqa qirol tomondan soliq va tangalar masalasida chaqirilib turgan tabaqa vakillarining alohida assambleyalari amalda General shtatlarni shakllantirib borib, 1314-yilga kelganda uning asosiy funksiyasi bo'lgan soliq tasdiqlash ishini boshqarishi ma'lum bo'lib qoldi. Ikkinchi bir tomondan olib qaraganda, tor doiradagi masalalar yuzasidan Qirol kengashining «kengaytirilgan» yig'ilishlari ham o'tkazilishda davom etib kelavergan.

Umumtabaqviy muassasalar tarixida deputatlar vakolatlarining xarakterlari to'g'risidagi masala asosiy masalalar sifatida qaralib kelingan, boisi aynan deputatlar vakolatlarining qay darajadaliqi muassasaning mamlakat hayotida nechog'liq mustaqil mahkama ekanligini anglatuvchi faktorlardan biri hisoblangan. Fransuz General shtatlarida ishtirok etuvchi tabaqalar vakillari – deputatlarning

²⁰ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.81.

vakolatlari ayni vaqtda bu tashkilotning jamiyat oldidagi nufuzi qanday bo'lganligini bilishning imkonini beradi.

Tarixiy manbalarda deputalarga nisbatan turlicha atamalar qo'llanilganligini kuzatish mumkin: procurator, actor, defensor, nuncius, specialis, syndius, locum tenens va boshqalar. Mandatlarning harakat dasturi ana shu mandatlik davridayoq aniq belgilab qo'yilgan. Ba'zan ularga qirol nimani aytsa, shuni qo'llab – quvvatlash buyurilgan. Ayrim hollarda prokuratorlar prokurasiya mualliflari uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarga rahbarlik qilishi kerak. Umuman olganda General shtatlarning ilk faoliyat yillarida deputatlarning vakolatlari chegarasini aniq belgilab berish qiyin. 1303-yilning 25-iyulida Lodev shahrida chiqarilgan yorliqqa ko'ra, deputatlar odatga ko'ra o'z ishlariga sodiq bo'lishlik va yuqoridan bo'ladigan buyruqlarga yo'l qo'ymaslikka jamo oldida qasam ichishgan.²¹

1308-1309-yillarda Filipp IV ning qizi to'yi munosabati bilan yig'iladigan ed solig'i bilan bog'liq ravishda deputatlar saylovchilar bilan konsultasiyalar o'tkazishgan. Qirollik hokimiyati ayrim provinsiyalar bilan muzokaralar amalayotida «qayta aloqa» deb ataluvchi usuldan foydalanishgan. 1318 va 1321 yillarda shu kabi qayta konsultasiyalar o'tkazilganligi ma'lum.

General shtatlarning dastlabki yillardagi faoliyatini taxlil etish orqali uning jamiyat hayotidagi o'rniga oz bo'lsada oydinlik kiritib olsa bo'ladi. Ma'lumki 1302 yil aprelda chaqirilgan Bosh shtatlar papa Bonifasiy VIII ga qarshi qaratilgan edi. Shunga ko'ra to'plangan uchta tabaqa vakillari ichida qirolga xayrihoh bo'lishi mumkin bo'lgan kuchlar bu ikkinchi va uchinchi tabaqa vakillari bo'lishi mumkin edi. 1302-yil 10 – aprel kuni Parij bogometriya soborida General Shtatlarning asosiy majlisi o'z ishini boshladi. Majlisning borishida Rim papasining fransuz ichki ishlariga alashishi qattiq qoralansada, ammo ruhoniylar tabaqasi vakillari diniy ishlarda bo'lgani kabi dunyoviy ishlarda ham qirol Rim papasiga bo'ysinishi lozimligi to'g'risida fikr bildirdilar. Qirol dadillik bilan u faqat unga hokimiyatini bergan xudo oldidagina bosh egishini ma'lum qiladi. Shunda dvoryanlar va shaharliklar tabaqasi qirollik sha'ni va ozodligi tarafida turishini, qirol basharti

²¹Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.97.

ruhoniylarga yon bosgan holatda ham ular qat'iy pozitsiyada turishlarini ma'lum qilishdi. Hatto 1302-yilning shu kuni fransuz ruhoniylar Bonifasiy VIII ga maktub yo'llab, ochiqdan – ochiq Rim papasi tarafida turishligini yana bir bor ko'rsatgan edilar. Undan tashqari shu majlisning o'zida Fransiya'dagi dvoryanlar tabaqasi ham Rim kardinallariga (papaga emas) maktub yuborishdi. Maktubni imzolaganlar orasida o'sha vaqtlarda yirik feodallar hisoblangan qirolning o'g'li Lyudovik, ukasi Evra, Burgundiya va Bretan gersoglari, Artua, Nevera, Dre graflarining ismini uchratish mumkin. Ular o'z maktubida qirol bilan yakdil ekanligini uqtirib o'tishdi: «hatto o'lim xavf solib turganda ham biz bu ishdan voz kechmaymiz va yo'limizni o'zgartirmaymiz hamda qirol qanday xohlasa, biz shunday qilamiz».²²

Dvoryanlar tomonidan Rim kardinallari nomiga yuborilgan bu maktubdan ko'zlangan asosiy maqsad kardinallar va Rim papasi o'rtasida ziddiyat solish edi. Ammo bunday bo'lib chiqmadi. 1302-yilning o'zida katolik cherkovi shu masalada sobor chaqirdi, sobor ishida Fransiyaning ayrim ruhoniylari ham ishtirok etdi. Qirol soborga yetganlarning mol – mulkini musodara qilishga va yangi assambleya chaqirishga buyruq berdi.

Fevralga belgilangan assambleya 12 mart kuni ish boshladi. Luvrdagi bu majlisda keyinchalik qirolning muhrdoriga aylangan Gilom Nagor chiqish qildi va bu majlisning bayonnomasi bizgacha yetib kelgan. O'z chiqishida endi ochiqdan – ochiq Rim papasiga qarshi hujumga o'tdi va Fransiya'da qirol boshchiligida alohida tozalangan cherkov tartiblarini o'rnatishga chaqirdi.

Shu yil ichida chaqirilgan navbatdagi majlislarda ham garchi masala qirol o'ylagan tomonga qarab siljishiga qaramasdan hamon ayrim ruhoniylar orasida papaga bo'lgan xayrihohlik saqlanib qolaverdi. Qolaversa, chaqirilgan bu assambleyalarda to'liq uchta vakillari ishtirok etdi deb aytish qiyin. Aniq bir yo'lini hali belgilab ulgurmagan ruhoniylar va dvoryanlarni o'z siyosati tomon og'dirish maqsadi qirol 1302-yilgi General shtatlarda va'da bergan qirollikda islohot o'tkazish to'g'risida ordonans e'lon qildi. Unga ko'ra ruhoniylar va dvoryanlar Lyudovik IX davrida ega bo'lgan erkinliklari va imtiyozlari qaytarib

²² Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.110.

berildi. Ordonansda oliy yustisiya, shaxsiy va mulkiy dahlsizlik saqlanishiga kafolat berildi.²³

Fransiya o'rta asrlar tarixida uzoq yillar ikki mintaqa tafovuti saqlanib qolindi. Ya'ni mamlakatning shimoli va janubi o'rtasidagi farqlar doimiy ravishda yagona va markazlashgan davlatning tashkil topishi uchun to'sqinlik qilib kelgan. Fransiya shimolida Papaga qarshi kayfiyat to'lig'icha g'alaba qozonayotgan bir sharoitda janubda sal boshqacha ahvolni kuzatish mumkin. O'zlarining markazdan siyosiy mustaqilligini saqlab qolish maqsadida janub provinsichlar Filipp IV va Bonifatsiy VIII o'rtasidagi kelishmovchilikdan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi.

Qirolga qarshi janubning ruhoniylar va dvoryanlar tabaqasi muxolifatni tashkil etdiki, ularni qirol tomonini olishga ko'ndirish maqsadida uyushtirilgan har qanday tadbirlar zoya ketdi. Qirol komissarlarining doimiy targ'ibot ishlari ham samara bermadi. Janubdagi birinchi va ikkinchi tabaqa vakillari qirolga qarshi kurashning antiqa shaklini topishdi, ya'ni maxsus chaqirilgan assambleyalarda shaxsan ishtirok etishdan qochishdi. Masalan, Monpelyega ajratilgan 18 ta ruhoniylar mandatiga 7 kishi talabgor bo'lgan bo'lsa, dvoryanlardan tushgan oltita yorliqdan 5 tasida shaxsan ishtirok etmasliklari keltirilgan edi.

Janub aholisning kayfiyatini hisobga olgan qirol Filipp IV Shaxsan Akvitaniyaga, Tuluza va Albijua provinsiyalariga tashrif buyuradi. 1303-yilning yanvarida Tuluzada bo'lgan qirol Bezye, monpelye va Nim orqali aprelning birinchi yarmida Parijga qaytib keldi. Manbalarda xabar berilishicha, janubda bo'lgan vaqtida qirol shunchalik hotamtoy va xush fe'l va kechirimli bo'ldiki, shu orqali xalq ko'ngliga yo'l topdi.

Qirolning mamlakat bo'yicha ruhoniylar va dvoryanlar tabaqasiga yon bosish holatini qirol uchun imtiyozli tabaqalarning roziligini olish qanchalik qimmatga tushganligini anglash mumkin. Hatto ayrim holatlarda Rim papasiga qarshi tura olgan qirolning oddiy viloyat ruhoniylariga yon bsoganligi holatlarni

²³ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.114.

kuzatish mumkin. Narbonna, Langedok cherkovlariga imtiyozlar va erkinliklar beruvchi ordonanslari ma'lum.²⁴

1302 yildagi General shtatlardan keyingi navbatdagi shtatlar yig'ilishi ayni tampliyerlar diniy – ritsarlik ordeni tugatilishi jarayonida, 1308 – yilning mayida chaqirildi. Ushbu ordenning tugatilishidagi kurash yo'lida bu chaqirilgan General shtatlar alohida ahamiyatga ega.

1308-yilning 24 va 29-mart oralig'ada ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklarni kengashga chaqiruvchi maxsus – chaqiruv – maktublari yuborildi. 24-martda chiqarilgan chaqiruv maktublarining ish jarayonini sekinlashtirganligini inobatga olib 29-mart kuni ancha qat'iy ohangdagi, hatto qatnashmasa jazo muqarrarligi tarzidagi maktublar tarqatildi. Bizgacha ushbu yig'ilishga tushgan ruhoniylarning 114 ta yorliqlari, ikkinchi tabaqa vakillarining 35 ta yorliqlari yetib kelgan.

1308-yilgi General shtatlar ishining yakuni sifatida quyidagilarni keltirish o'rinli. Bu paytga kelib qirollik hukumati 1302-1303 yillardagi kompaniyalarda bo'lgani singari ruhoniylar va dvoryanlarning qattiq muxolifatiga duch kelmadi. 1308 – yilga kelganda gap cherkov va siyosiy masalalarda mustaqil bo'lgan hamda fransuz jamiyatida boyligi va sudxo'rlik faoliyati uchun norozilikka sabab bo'lib kelayotgan tampliyerlar diniy – risarlik ordenini tugatish haqida ketmoqda edi. Masalaning yana bir nozik tomoni ham bor edi. 1302-1303-yillardagi Rim papasiga qarshi kompaniyadan keyin mamlakatda qirolning nufuzi keskin oshib ketdi. U dunyoviy yer egalari bilan birga diniy feodallarning va cherkovning ham ichki ishiga aralashadigan darajaga yetdi. Buning yorqin isboti tampliyerlar ordenini tugatishda qirolning tashabuskor bo'lganligida edi. Shuning uchun ham bu safar General shtatlarga to'plangan biirinchi va ikkinchi tabaqa vakillari bu masalada ehtiyotkorlik pozitsiyasini tutdi. Qirol hukumati shunday sharoitda asosiy tayanchni shaharliklardan olishga qaratdi. Qirolning ustamonligi shunga olib keldiki, u xohlagan ishini bajara oldi, xalq oldida o'zini oqlash uchun bu ishlarga umumtabaqaviy muassasalarni qo'shdi.

²⁴ Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.121-122.

1302-yilgi General shtatlarda ishtirok etgan tabaqalar orasida hali to'la nufuzga ega bo'lib ulgurmagan shaharliklar ham qatnashganligini ta'kidlash kerak. Shtatlarning birinchi yig'ilishida garchi shaharliklar hali hal qiluvchi ovozga ega bo'lmasalar ham, ammo ularning o'rta asrlar sharoitida umumtabaqaviy muassasa yig'ilishlari ishiga chaqirilishi, bu yig'ilish umumdavlat miqyosidagi ahamiyat egaligini qad qilgan holda, tabaqaning jamiyat hayotidagi o'rnini asta – sekinlik bilan oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Tur shahridagi assambleya munosabati bilan barcha «mashhur shaharlar va joylarga» chaqiruv – maktublari yuborildi, Makon balyasiga yuborilgan maktub mazmuniga ko'ra shaharlarning sonini ortirishga ko'rsatma berilgan edi. Natijada 1308-yilgi General shtatlar ishida shaharliklarning soni o'sganligi kuzatiladi. Yig'ilishda shaharlardan 259 ta yorliqlar kelib tushganligi ma'lum.²⁵

Shaharliklarning o'zlari ham 1308-yilgi General shtatlar ishida ishtirok etishga xohish bildirishgan. Ayrim shaharlarning yorliqlarida keltirilishicha, shaharliklar qirolning xohishini bajarish uchun deputatlar yuborayotganligi aytilinadi. Garchi mazkur siyosiy tashkilot hali qirolga qaram ekanligini yaxshi tushungan va o'zlari ko'proq maslahatchi funksiyasini bajaruvchilar bo'lishini yaxshi tushungan shaharliklar o'zlari uchun yangi siyosiy hayot shakllaridan biriga qatnashishga intilishni kuzatish mumkin. Boshqa ikki yuqori tabaqa vakillaridan farqli ravishda shaharliklar deputatlarini yuborish orqali qirolning istagini bajarayotganligini ta'kidlab kelganlar. Faqat mamlakatning janubiy provinsiyalar shaharlarining yorliqlarida qirolning xohishi masalasiga urg'u berilmagan.

XIV asrlarning boshlarida vujudga kelgan murakkab siyosiy vaziyatdan to'lig'icha partikulyarizmdan xolos bo'lmagan shaharlar o'zlarining manfaatlari o'sha vaqtlarda o'rta asrlar fransuz jamiyatining rivojlanishi uchun obyektiv ehtiyoj bo'lgan qirollik hokimiyati manfaatlari bilan mos kelardi. 1302-1308-yillardagi fransuz qirolining Rim papasi bilan diniy va dunyoviy hokimiyatlarning o'zaro munosabatlari va dunyoviy hokimiyatning diniy hokimiyatdan mustaqil ekanligi borasidagi tortishuvlari negizida mamlakatning markazlashuv masalasi

²⁵Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976, С.134.

turardi. Qirolni faol qo'llab – quvvatlagan shaharliklarning tutgan pozitsiyasi bunda hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.

Shunday qilib, XIV asr boshlariga kelganda umumdavlat organining paydo bo'lishi Fransiyada tabaqaviy monarxiyaning uzil – kesil qaror topishiga olib keldi. Davlatning shu galdagi keyingi taraqqiyoti keyingi asrlarga to'g'ri keladi.

Garchi General shtatlar ixtiyorida qonun chiqaruvchi hokimiyat bo'lish vakolati bo'lmagan bo'lishiga qaramasdan, epizodik xarakaterda bo'lishiga qaramasdan mamlakatdagi sud va moliya tashkilotlari ishiga kuchli ta'sir o'tkazgan.

1.3. Fransiyaning o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida umumtabaqaviy muassasalarning ishtiroki

Fransiyada tabaqaviy monarxiyaning qaror topishi bilan mamlakat hayotida shu boshqaruv shakligi xos ayrim o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Birinchi navbatda tabaqaviy monarxiya bu umumdavlat miqyosida vakillar ishtiroki bilan rasman boshqariluvchi davlatdir. Amalda o'rta asrlarning hech bir hukmdori o'z «hokimiyatini» boshqalar bilan taqsimlashni istamagan. Ammo ba'zi masalalarda ojizlik uni davlatning yetakchi tabaqalari bilan hisoblashishiga, hech bo'lmaganda maslahatlashishiga majbur qilgan. Angliyada qirol hokimiyatiga muxolif sifatida tashkil topgan parlamentdan farqli ravishda Fransiya'dagi umumtabaqaviy muassasalar ko'proq qirolning xohish – istagini bajaruvchi, uning amalda hal qilib qo'yilgan xulosasining muhokamasi uchun yig'ilar edi. Jamiyatda sodir bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida fransuz umumtabaqaviy muassasalarining roli ortib bordi. Bunga ma'lum darajada Fransiya'da qirollik hokimiyatining kuchsizlanib qolganligi ham sababchi bo'ldi. Lekin bu davr uzoq davom etmadi. O'rta asrlar Fransiya tarixining XIV – XV asrlarigina umumtabaqaviy muassasalar nisbatan erkin faoliyat ko'rsatgan va nufuzga ega bo'lgan davr bo'ldi. Keyingi asrdan boshlab shakllanayotgan absolyutizm kurtaklari General shtatlarning ham ahamiyatini tushirib yubordi. XVI – XVII asr boshlariga bo'lgan muddatdagi shtatlarning kamdan – kam hollardagi yig'ilishini hisobga olmaganda XVIII asr oxirigacha, ya'ni Buyuk Fransuz inqilobigacha amalda chaqirilmay qo'yildi.²⁶

Provinsial shtatlar haqida ham ushbu yuqoridagi fikrlarni keltirish mumkin. Ularning ayrimlari, masalan, Langedok, Bretan, Burgundiya, Prvans, Artua, Kombrezi kabilarning shtatlari garchi Buyuk fransuz inqilobigacha chaqirilib turilgan bo'lsa ham, ammo Lyudovik XI vafotidan so'ng o'zalarining oldingi avtonomiya maqomidan mahrum bo'lishdi. Lyudovik XIV boshqaruvi davriga kelganda Anju, Mens, Turen, Orlean, Angulem, Perigor, Kers va Ruerq kabi provinsiyalarning shtatlari o'z faoliyatini tugatdi.

²⁶ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.181.

General shtatlarning rasman paydo bo'lish davrigi 1302, 1308 va 1314 yillardagi yig'ilishlardan boshlab to shu asrning 50 – yillarigacha bo'lgan davrdagi faoliyatini shartli ravishda birinchi bosqich deb olgan edik. Shu bosqichda General shtatlarning mamlakat hayotidagi o'rni quyidagi asosiy voqeyeliklar bilan muhrlandi. Birinichidan Fransiya va Angliya o'rtasida boshlanib ketgan yuz yillik urush General shtatlarning nisbatan siyosiy faollashuviga turtki bo'ldi. Urush yillari davomida umumtabaqaviy organ o'ziga umudavlat ahamiyatiga molik bo'lgan bir qancha ishlarni o'z bo'yniga oldi. Barcha tabaqa vakillarini chaqirishga harakat qilish bilan birga ular orasidagi bahs munozarlarda 1318, 1320, 1321, 1329, 1333, 1343, 1347-yillardagi yig'ilishlarda subsidiyalar masalasi ko'rildi, siyosiy masalalar (salib yurishlari, 1317 yilda Puatye grafining taxt merosi) kabilar muhokama qilindi. Bu davr oralig'ida hamon janub va shimol o'rtasidagi tabaqaviy farqlar saqlanishda davom etib kelaverdi.

Misol uchun, 1340 yilda Filipp VI maahlliy assambleyalardan pul yordami to'g'risidagi qarorni ololmaydi. Parijdagi Langedoylya va Tuluzadagi Langedok shtatlari deputatlari 1346 yilda va 1351 yillarda qirolning soliq siyosatiga o'zlarining «impereativ mandat» huquqidan foydalangan holda qarshilik ko'rsatdi. Shunda qirol provinsiyalardagi mahalliy shtatlardan yordam oladi, jumladan, Normandiya assambleyasidan, buning evaziga unga provinsial xartiyani berishga majbur bo'ldi. 1347-yilda Kale portidagi fransuzlarning mag'lubiyatidan keyin General shtatlar yangi soliqni olish kerakligini talab etishganda, Normandiya va Vermandua provinsiyalari soliq yig'ish ishlari shtatlar tomonidan tayinlangan odamlar orqali amalga oshirish kerakligi to'g'risidagi taklif bilan chiqishdi.²⁷

Yuz yillik urush davrida, 1355 – 1358 yillardagi General shatalarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. 1355-yilning kuzida Langedoylyada yig'ilgan shtatlar qirol bilan birga yashashga va o'limga tayyor ekanligini bildirib, talab qilingan subsidiyalarni berishga, pul to'plashning yangi muddatini belgilashga va uni o'zlarini nazorat ostiga olishga kirishishini ma'lum qilgan edilar. 1356, 1357 va 1358 yillarda parallel ravishda Parij va Tuluzada chaqirilgan assambleyalarning

²⁷ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.182.

amalda muntazamligi huquqiy jihatdan 1357-yilgi Buyuk mart ordonansi bilan mustahkamlanib qo'yilgan edi. Ordonansdagi qoidaga muvofiq, general shtatlar yiliga bir marta «qirolning maxsus chaqirig'isiz va maktublarisiz Parijda yoki tabaqalar xohlagan boshqa joyda» chaqirilishi belgilandi.²⁸

Shunday vaziyatda General shtatlarni muntazam faoliyat yurituvchi organga aylantirish mumkin edi, ammo uning hayotga tadbiiq etilishiga 1356-yil 19-sentyabrdagi fransuzlarning Mopertyudagi qaqshatqich mag'lubiyati to'sqinlik qildi. Langedoylyadagi assambleya belgilangan muddatdan 16 kun oldin, ya'ni 17-oktyabrda ochildi. Dofin muxolifat kayfiyatdagi shtatlar bilan hisoblashishni istamadi. Tangalar tarkibidagi nodir metallarning kamaytirilib zarb etishiga norozi bo'lgan xalqning 1356-yil dekabrda Parijda qurolli qo'zg'alon ko'tarishi dofinning qaytadan shtatlar yig'ilishini chaqirishga majbur qildi. Va ana shu yig'ilishda, 1356-yilning 15-fevralida mashhur Buyuk mart ordonansi qabul qilindi.

Bordoda yarashuv sulhini imzolagn Ioann II zo'r berib assambleyani tarqatishga urinishi barbod bo'ldi. Parijdagi tartibsiziliklar uni oxir – oqibat yangi General shtatlar yig'ilishini chaqirishga majbur qilib qo'ydi. Tabaqalar bu organning vakolatlarini yanada kengaytirish yo'lini boshlab yubordilar. Ular endi nafaqat soliqlarni tasdiqlash huquqini talab qilishdi, balki pulning taqsimotini nazorat qilishni, shtatlar tomonidan tayinlanadigan 9 general va 9 superintendantlar (har bir tabaqadan 3 tadan vakil) yordamida soliq yig'ib olishni talab qildilar. Mazkur masala 1355-yil dekabr ordonansida o'z aksini topgan bo'lib, keyinchalik Buyuk mart ordonansining tarkibidan o'rin egalladi.

Shtatlar yangi tangalarni muomalaga chiqarishga rozilik berish bilan birga o'zlarining deputatlarini tangalar ishi bo'yicha amaldor qilib tayinlashni ham talab qilishdi. Shtatlarning ijroiya hokimiyatini to'lig'icha nazoratga olishga urinishi General shtatlar deputatlari hisobiga davlat apparati majmuidagi lavozimlar o'rniga amaldorlarni olish tamoyili to'g'risidagi qarorida o'z aksini topdi. General shtatlar Qirollik kengashi bilan birga butun apparatda islohot o'tkazishga tayyorgarlik

²⁸ <http://www.vostlit.info>

ko'rishi kerak edi. General shtatlar hatto ularning roziligisiz monarxiyaning sulh tuzishi va aryer – banni chaqirish mumkin emasligini ham e'lon qilishdi.²⁹ Natijada mamlakat siyosiy hayotida bir yarim yil hukmronlik qilgan ikki hokimiyatchilik vujudga keldi.³⁰

XIV asrlarning 50-yillarida General shtatlarda mana shunday chaqiriqlarning yangrashiga ma'lum bir omillar sababchi bo'ldi. Ma'lumki Yuz yillik urush davrida Fransiyaning taslimchilik siyosati, ayni vaqtda tabaqalar o'rtasida saqlanib kelayotgan imtiyozlilik tafovuti oxir – oqibat Parijda Etyen Marsel boshchiligidagi qo'zg'alonga sabab bo'lgan edi. Boshqa o'rta asrlar qo'zg'alonidan farqli ravishda Parij qo'zg'alonining markazida bu safar shaharliklar turdi. Ayni vaqtda bu qo'zg'alon tabaqalar o'rtasida General shtatlar ichida kelishmovchilikni, birinchi navbatda soliq masalasida, olib keldi. 1356-yilgi yig'ilish qarori va Buyuk mart ordonansiga ko'ra ruhoniylar va dvoryanlar o'zlarining sof daromadining 10,5% ni soliq sifatida to'lashlari belgilangan edi. Bu to'lov 100 livr daromadning 15 livrini topshirishga teng bo'lganligi bois, feodallar qatalmini buni juda katta mablag' ekanligini ta'kidlashdi. Undan tashqari Parijga muxolifat kayfiyatidagi Shampan mahalliy shtatlari 100 livrdan renta tarzida 15 livr emas, 100 su olish kerakligi to'g'risida qaror chiqardi. Bu holat ham umumtabaqaviy muassasaning ichida aksil dvoryanlik kayfiyatining o'sayotganligidan dalolat berib turibdi.

Aksildvoryanlik yo'nalishi tarafdorlari shaxsiy armiyalarga ega bo'lishni ta'qiqlash, dvoryanlarga qirollik hududini tashlab chiqib kelmaslikni, bu bilan o'zlarining majburiy burchi hisoblangan mamlakatni himoya qilishdan bo'yin tovlashning oldini olish maqsadida, taqiqllovchi chora – tadbirlarni ko'rdi. Bu kayfiyat ayniqsa 1356-yilgi fransuz armiyasining mag'lubiyatidan keyin kuchayib ketdi, chunki bunda birinchi raqamli aybdorlar sifatida feodallar qaraldi.

1355-yilgi ordonansda qabul qilingan va 1356-yilgisida mustahkamlanib qo'yilgan bir masala bo'yicha ikki tabaqaning roziligi uchinchi tabaqani mazkur masalani qabul qilishga majbur etmaslik tamoyili ham General shtatlarning amalda

²⁹Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.182.

³⁰ История средних веков. В 2-х томах. Т.1, Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова М., 1990, С.247.

kuchsizlanishini keltirib chiqardi. Bu tamoyil shtatlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga qonuniylik tusini berganligi ham foyda bermadi. 1358-yil yanvar Parijda to'plangan navbatdagi shtatlar ishida ruhoniylar va dvoryanlarning katta qismi ishtirok etmagan bo'lsa, fevral yig'ilishida amalda dvoryanlar to'lig'icha ishtirok etmadi, bu ularni soliqdan holi qolishga zamin bo'lib xizmat qildi, chunki ular rasman yig'ilishdagi soliq qaroriga rozilik berganligi yo'q edi.³¹

XIV asr 50-yillardagi General shtatlar va provinsial assambleyalarning faoliyati haqida umumiy xulosa beradigan bo'lsak, mumtabaqaviy muassasalar zarur vaqtda davlat hokimiyatining asosiy tayanchi sifatida ba'zi masalar bo'yicha hal qiluvchi pozitsiyada turganligini ta'kidlash o'rinlidir. Qirol hokimiyatining zaiflashuvi tabaqalar o'rtasida ziddiyatlarning va qarama – qarshiliklarning kengayishiga omil bo'lib xizmat qildi. Undan tashqari markaz va provinsiyalar o'rtasidagi kelishmovchilik ham General shtatlarning doimiy tushdagi davlat vakillik organi bo'lishiga to'sqinlik qildi. Bundan monarxiya tarafdorlari muxolifatga qarshi kurushidan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. Regent Fransiya shaharlari bo'ylab sayohat qilishi davomida ularni Parijga, General shtatlarga qarshi kurashga da'vat etdi. Bunga qarshi General shtatlarning assambleyasi 1358-yilning fevralida Langedoylyada provinsial shtatlarning faoliyatini tahqiqlovchi qaror qabul qildi. Unga ko'ra yagona huquqli assambleya sifatida Parijdagi General shtatlar tan olinishi nazarda tutildi hamda joylardagi shtatlarning hech qanday vakolatlarga ega emasligi belgilandi. O'z navbatida provinsiyalardagi assambleyalar o'zlarining foydasi uchun qaror qabul qilishdi. 25-mart kuni dofin Sailisda shtatlarni yig'ib, Pikardiya va Bovezi okruglari deputatlaridan madad olishga erishdi, 10 – aprel kuni xuddi shunday holat Shampän va Provens deputatlari bilan ro'y berdi. Shu yerga Shampän marshalining poytaxtda o'ldirilishi masalasiga oydinlik kiritish uchun borgan Parij delegatsiyasi dushmanlarcha qarshi olindi. Shu tariqa provinsial assambleyalar ijtimoiy harakatlarning oxirgi

³¹ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.183-184.

bosqichlarida o'zlarining manfaatlarini unutmadilar, undan tashqari umumdavlat ehtiyojlari yo'lida muhim rolni o'ynadilar.³²

Karl V qirollik taxtiga kelganidan so'ng Langedoylyada general shtatlarni chaqirishni (1369-yilning mayida Parijda, avgustida Ruanda, dekabrda yana Parijda), provinsiyalardagi va boshqa mahalliy shtatlarning yig'ilishini o'tkazishni urush munosabatai bilan davom ettirdi. Shu asrning 60 yillar oxiridan qirollik hokimiyatining kuchayishi bilan tabaqaviy vakillik organlari ma'muriyatning bosimiga tushib qolishdi.

Tarixchilar tomonidan XIV – XV asrlar Fransiya tarixining eng yomon davri sifatida qaraluvchi Karl VI hukmronligi davrida tabaqaviy muassasalar hayotida ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. XIV asrning 80-yillarida Shimoliy Fransiya shaharlarida 1356-1357 yillardagi norozilikni eslatuvchi soliqlarga qarshi yirik chiqishlar sodir bo'ldi. Norozilik to'lqinlari qirol hokimiyatining zaifligi munosabati bilan General shtatlar bilan qonunchilikni bir – biriga yaqinlashtirdi, asosan bosh va provinsial assambleyalar qarama – qarshiligi bilan o'ralashib qolgan umumtabaqaviy muassasalarning faollashuviga turtki bo'ldi.

Aksil soliq chiqishlaridan qo'rqqan monarxiya 1308-yil noyabrda Langedoylya shtatlarini (yoki General shtatlarni) chaqirishga majbur bo'ldi, qaysiki ulardan nafaqat to'g'ridan – to'g'ri to'lanadigan fuaj (tutin solig'i, yuz yillik urushda to'g'ridan – to'g'ri undirilishi Karl V tomonidan belgilangan edi³³), balki boshqa soliqlarni yo'qotishni ham talab qilishdi. Bu talablar Karl VI ning ordonansida ham o'z ifodasini topgan edi. Monarxiyaning moliyaviy qiyinchiliklarni provinsial shtatlar hisobiga hal qilishga urinishi ham qattiq qarshilikka uchradi. Masalan Normandiya shtatlari 1380-yil 10 – dekabrda bunga qarshi qaror qabul qildi va uni boshqa shaharlarning hal qiluvchi qarorlarining chiqishini kutish bilan izohladi.

Soliqqa qarshi harakatlarning tugamaganligi monarxiyani yana umumtabaqaviy muassasalarning yordamini olishga majbur qilib qo'ydi. 1381 –

³²Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.188.

³³ История средних веков. В 2-х томах. Т.1, Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова М., 1990, С.250.

yilning dekabrda Normandiya provinsiyasi, Shartr, Reyms, Lan, sans shaharlari assambleyalari ayrim yon berishlarni amalga oshirdi. 1381-yilning martida dvoryanlar va ruhoniylarga berilishi nazarda tutilgan (qirol 1380-yilning dekabrda yuqori tabaqa vakillariga ayrim imtiyozlarni berishni va'da qiluvchi ordonans qabul qilgan edi) imtiyozlarning ayrimlari tasdiqlandi. Xususan, Langedoylya dvoryanlari va ruhoniylari bilvosita (kosvennyy) soliqlardan ozod qilindi, dvoryanlarga ularni to'plashga yordam berish vazifasi yuklatildi.

Soliqlarni yig'ish uchun General shtatlardagi uchta tabaqa vakillaridan iborat guruh tuziladigan bo'ldi, provinsiyalardagi shtatlar bo'lsa, o'zalari hoxlagan tartibda yig'ishini ma'lum qilishdi.

1382-yilda monarxiyaning miqdori provinsial shtatlar tomonidan belgilanib kelinadigan talya solig'ini oshirish, uni qirollik amaldorlari qo'li bilan yig'ib olishga harakati yuqoridagi kelishuvni ochiqdan – ochiq buzishi, joylarda, Ruan va Parij qo'zg'olonlari kabi, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga olib keldi. Shunisi qiziqki, Ruandagi munisipial hayot erkinligini ta'qiqlagan qirol, soliqlar yig'ib olishga yordam berib kelgan provinsial shtatlar faoliyatini tugatmadi. 1382-yilning aprelida Pikardiya va Kompyen shtatlari qirolga ma'lum bir mablag'larni yig'ib berishga qaror qildi. Ammo 1382-yilning kuzidan boshlab urush sababli monarxiya o'z xohishicha soliq yig'ib olishni, o'z navbatida bunga javobgar bo'lgan general maslahatchilarning hokimiyatini kengaytirishni belgiladiki, bu bilan mahalliy va provinsial shtatlar huquqlari cheklanardi.

Umumtabaqaviy muassasalarning navbatdagi faollashuvi 1412 – yilda inglizlarning bostirib kelishi natijasida mamlakatda boshlanib ketgan tartibsizliklar sharoitida 1413-yilda chaqirilishi bilan bog'liq. Bunda General shtatlar 259 moddadan iborat ordonans (kaboshyenlar ordonansi nomi bilan mashhur) qabul qildi.³⁴ Mazkur ordonansga ko'ra mamlakatda mo'tadil moliyaviy va sud islohotlari amalga oshrilishi nazarga olingan edi. Davlat apparatining normal faoliyat yuritishi va adaolatsizliklardan himoyalanishning kafolati sifatida

³⁴ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.189.

amaldorlarni tanlab lavozimga o'tkazish va davlat lavozimlarini sotishni man qilish talab etildi.³⁵

1415-yilning oktyabrida Azenkur yonidagi mag'lubiyat Fransiya uchun sharmandali bo'lgan Trua shartnomasining imzolanishiga olib keldi.³⁶ Shatnomaga ko'ra Angliya qiroli taxti ostida Fransiyaning yagona qirollikka birlashishi tabaqaviy muassasalar faoliyatiga ham ta'sir qildi. Inglizlar qo'liga o'tgan mamlakat shimolida garchi qisqa muddat yig'ilmagan bo'lsa ham soliqlar qaytadan yig'ila boshlanishiga qaramasdan umumtabaqaviy muassasalar faoliyat ko'rsatmay qo'ydi. Dofin va bo'lg'usi qiroli Karl VII tomonidan boshqarilayotgan hududlarda 20 yil davomida (1420-1440 yillar oralig'i) muntazam ravishda Bosh, yana ham aniqrog'i mintaqaviy (Langedok va Langedoylyada), provinsial va mahalliy shtatlar yig'ilib turdi va ular fransuz taxtining qonuniy valiaxtining inglizlarga qarshi kurashida soliq to'plash ishlariga yordam berdi. 1421-yildan to 1440 yilgacha Langedoylya va Langedokda shtatlar jami 22 marta yig'ilish o'tkazgan bo'lsa, shulardan General shtatlar sifatida 1428-yilda Shinonda, 1439-yilda Orleanda, 1440-yila Burjda yig'ildi.³⁷

Ulardan 1439-yilgi General shtatlar yig'ilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda prinsipial jihatdan monarxiyaning keyingi taqdiri uchun muhim bo'lgan doimiy qo'shin saqlash va uning ta'minoti uchun mutazam olinadigan soliqni joriy qilish haqida qaror qabul qilindi. Ammo urush davrida doimiy soliq joriy etish masalasi qiyin edi. Qolversa, mazkur shtatlar yig'ilishi asosan Nomandiya, Giyena va boshqa shaharlarni Angliyaga berish evaziga u bilan tinchlik sulhini imzolash masalasida chaqirilgan edi. Unda ham 1359-yil General shtatlari yig'ilishida aytilgani kabi, qiroli o'z fuqarolarining roziligisiz mamlakatni bo'la olmaydi degan fikr ilgari surildi.

Qiroli Lyudovik XI hukmronligi davrida chaqirilgan yagona General shtatlar ishida ham (1468-yil) ham yuqoridagiga o'xshash masala muhokamasi uchun tabaqalar vakillari to'plangan edi. Gap qirolni Jamiyat baxt – soadati ittifoqi

³⁵ Бессмертный Ю.Л. Предпосылки и характер крестьянских движений во Франции XIV в /Французский ежедневник. М., 1976, С.45-46.

³⁶ Басовская Н.И. Столетняя война 1337-1453 гг. М., «Высшая школа», 1985. С.104-105.

³⁷ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.190.

rahbari Karlga Normandiyaning topshirish masalasida edi. Shtatlar yordamida qirol Normandiya domenning ajralmas bir qismi ekanligini rasmiylashtirib oldi. Qolaversa mazkur General shtatlar yig'ilishida ishtirokchilarning general assambleyaga qatnashishlari bilan bog'liq moddiy va jismoniy qiyinchiliklari to'g'rsida arzlar tinglandi.³⁸

XV asrning ikkinchi yarmidagi eng oxirgi General shtatlar majlisi 1484-yilda o'tkazildi. Tur arxiyepiskopligi saroyida ish boshlagan General shtatlar 5 yanvardan to 14-martgacha o'z ishini davom ettirdi. Fransiya tarixida birinchi marta har bir seneshal yoki balyajlardan 1-3 nafargacha deputatlarning saylovi asosida shtatlar chaqirildi. Uning ishida jami 284 da deputat ishtirok etdi. General shtatda 6 ta seksiya tashkil etildi, bu taqsimot Fransiyaning 6 moliyaviy generalitet – okruglariga moslashtirib amalga oshirildi:

I – Parij, Shampain, Vermandua, Sanlis, Sans, Shartr, Orlean, Niverne, Osser, Makon, Montarj;

II – Burgundiya gersogligi va grafligi;

III – Normandiya;

IV – Akvitaniya (Armanyak, Fua, Ajene, Perigor, Kersi, Ruerg);

V – Langedok (Dofin, Provans, Russilon);

VI – Berri, Puatu, Anju, Men, ...

Har bir seksiya ishi uchun alohida zallar berilib, yig'ilish Prezidenti sifatida Parij abbati Sen – Deni tayinlandi. General shtatlar muhokamasida cherkov masalasi, Ikkinchi tabaqa vakillarining assambleyalardagi ishtiroki, dehqonlar masalasi bo'yicha uchinchi tabaqaning mulohazalari o'rin egalladi.³⁹

Lyudovik XI ning uchta vorislari – Karl VIII (1483-1498-yy), Lyudovik XII (1498-1515-yy) hamda uzoq muddat hukmronlik qilgan Fransisk I (1515-1547-yy) davri Fransiya tarixida absolyut monarxiyaning shakllanishi davri sifatida xarakterlanadi. Ana shu davrdan e'tiboran amalda General shtatlar chaqirilmay qo'yildi. General shtatlar o'rnini oldingi davrlardan saqlanib kelayotgan Parij

³⁸ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.191-192.

³⁹ Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989, С.192-194.

parlamenti bajaradigan bo'ldi. Parij parlamenti muhim shartnomalarni tasdiqlar, qirol yosh bo'lsa regent tayin etar, qirolning buyruqlarini qayd qilar va uning oldingi qonunchilik bilan mosligini nazorat qilar edi.⁴⁰ Birgina shu organ ma'lum darajada qirolga qarshilik ko'rsatishi mumkin edi. Ammo qirollar bu organ tarkibiga o'ziga sodiq bo'lgan kishilarni kiritishga harakat qilgan. Shu boisdan ham mazkur organni biz umumtabaqaviy muassasa deb aytishdan yiroqmiz.

So'nggi o'rta asrlarda Fransiyada qaror topgan absolyutizm sharoiti ayni vaqtda Parij parlamenti singari organlarning miqdori ko'payishiga ham sababchi bo'ldi. XV-asr o'rtalarigacha Fransiyada bitta parlament, ya'ni Parij parlamenti faoliyat ko'rsatgan. Rasman bu parlamentga nisbatan «Miniatyuradagi General shtatlar» degan nom berilib, unda asosan yuqori ikki tabaqa vakillariga mansub tor doiradagi kishilar to'plangan. Keyinchalik 1443-yilda Tuluzada Langedok uchun parlament, 1451-yilda Grenobleda Dofine uchun, 1462-yilda Bordoda Giyeni uchun, 1477-yilda Dijonda Burgundiya uchun parlamentlar tashkil etilganligini ta'kidlash kerak.⁴¹

1614-yilda rasman o'rta asrlar Fransiya tarixidagi oxirgi General shtatlar o'z ishini boshladi. Shundan keyin uning faoliyatida 175 yillik tanaffus, ya'ni 1789-yilgacha, davom etdi. Bu o'rta asr va yangi zamonning dastlabki to'qnashuvlaridan biri edi. Sababi unda o'rta asrlardagi Shtatlar yig'ilishida bo'lgani kabi tabaqalar o'rtasida emas, dvoryanlar tabaqasining ikki qismi – eski va yangi dvoryanlar o'rtasida kurashdan iborat bo'ldi.⁴²

General shtatlarning mazkur yig'ilishidagi ikkinchi qatlam asosan provinsiyalardagi dvoryanlar urug'i vakillaridan iborat bo'ldi, lekin 130 nafar deputatdan iborat bo'lgan bu palatada tayziqqa uchragan oila vakillarini ham uchratish mumkin edi. Uchinchi tabaqa 188 ta a'zodan iborat bo'lib, ulardan 6 nafari savdogarlar, yana shuncha provinsiyalar sindiklari edi. Qolganlarning barchasi provinsiyalardagi o'rta amaldorlik qatlamiga mansub shaxslar bo'lgan.⁴³

⁴⁰ История средних веков. В 2-х томах. Т2., Под ред. С.Д.Сказкина и О.Л.Вайнштейна. М., 1939, С.306.

⁴¹ Люблинская А.Д. Франция при Ришелье. Французский абсолютизм в 1630-1642 гг. Л., 1982, С.233.

⁴² Люблинская А.Д. Франция в начале XVII века (1610-1620 гг.). Л., 1959, с.143-173.

⁴³ Люблинская А.Д. Франция при Ришелье. С.238.

II BOB. O'RTA ASRLAR PIRENEY YARIM OROLIDA UMUMTABAQAVIY MUASSASALAR

II.1.Pireney yarim oroli davlatlarida umumtabaqaviy muassasalarning paydo bo'lishi

Yaqin Sharqdagi kattagina hududlarni zabt etib ulgurgan arab xalifaligi Afrika qit'asining shimoliga hujum qilganidan keyin o'zining harbiy yurishlari yo'nalishini Yevropaga qaratdi. VIII asrning birinchi yarmigacha bo'lgan muddat ichida arablar berber qo'shinlari yordamida hozirgi Fransiya hududigacha kirib borishga muvaffaq bo'ldi. 709 – 714 – yillardagi Pireney yarim orolidagi harbiy yurishlar natijasida arablar tomonidan Kentabri tog'lari, Pireney va Biskay qo'ltig'i hafzasi hududlari bosib olinmadi. Bu yerda yashab kelgan kantabrlar, asturlar, basklar bir vaqtlar qudratli Rim imperiyasiga, undan keyin kelgan Vestgotlar davlatiga ham bo'ysinmagan edi. Arablarning mazkur hududlarni qo'shib olish siyosati ham muvaffaqiyatsiz tugashi natijasida, 718 – yilda bu yerda birinchi mustaqil davlat – Asturiya tashkil topdi. Keyingi asrlarda mazkur davlat tarkibiga Galisiyaning bir qismi qo'shib olindi.

Aytish kerakki, Pireney yarim orolida mustaqil – xristian davlatlarining (tarixshunoslikda Ispaniyadagi arablar davlati bilan aralashtirmaslik uchun ko'pincha bu davrdagi ispan davlatlariga xristian so'zi qo'shib qo'llaniladi) tashkil topishi rekonkista (ispanchadan tarjima qilinganda qayta bosib olish demakdir) harakati bilan uzviy ravishda bog'liq. VIII asr oxirlariga kelib rekonkista harakatining yana bir markazi hozirgi Kataloniya hududida shakllandi. Ayni shu hududda IX – X asrlarda ikkita uncha katta bo'lmagan davlatlar – Navarra qirolligi va Aragon grafligi tashkil topdi. 1035 – yilda Aragon va Kataloniya qirollikka aylandi. 1037 – yilda Kastiliya qiroli Fernando I Leon qirolligi qo'shinlarini mag'lub etib, o'z hokimiyati ostiga Ispaniyaning g'arbiy qismini birlashtirdi. Shu tariqa XI – asrning 30-yillari oxirida Pireney yarim orolida Kastiliya (tarixiy adabiyotlarda Ispaniyaning g'arbida vujudga kelgan davlatni Asturo-Leon – VIII-XI va Leon-Kastiliya – XI-XIII deb atalinadi), Navarra va Aragon, vassallik hududlari bilan Barselona grafligi kabi xristian davlatlari vujudga keldi. Shu

boisdan ham biz Ispaniyada umumtabaqviy muassasalarning vujudga kelishini, rivojini va mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotidagi rolini to yagona Ispan davlati tashkil topguniga qadar alohida – alohida davlatlar misolida ochib berishni maqsad qilganmiz.

Leon va Kastiliyada umumtabaqviy muassasalarning paydo bo'lishi va tabaqalar.

Feodalizmning shakllanishi va taraqqiyoti davomida jamiyatda erkin va qaram qatlamlar o'rtasidagi tafovut sezilarli darajada bo'lgan. Erkin qatlamni tashkil etuvchilar o'zlarining ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy mavqeiga ko'ra ham bir necha tabaqalarga bo'linib ketgan va bularga nisbatan ko'pincha imtiyozli yoki yuqori tabaqa vakillari degan tushunchalar ishlatilgan. Leon – Kastiliya jamiyatida yuqori tabaqa vakillarining ikkinchi tabaqasini *militlar, infonsonlar* deb ataluvchi qatlam tashkil qilgan. XII asr ikkinchi yarmidan ularning soni tezlik bilan ko'payib borgan. Dvoryanlar tabaqasining birinchi rangasiga mansub qatlam *rikos- ombres* (boy odamlar) deb nom olgan. XII asr oxiridagi tarixiy hujjatlarda uchray boshlaydi. Shu kategoriyaga *potestadlar* deb ataluvchi graflar ham kirgan. Undan tashqari jamiyatdagi dvoryanlar qatlamining quyi bo'g'inini kabaleroslar – ritsarlar tabaqasi tashkil etgan. Kortesarlar vujudga kelishidan oldin, Leon va Kastiliya qirolligida dvoryanlar va ruhoniylardan iborat yig'ilishlar mavjud bo'lgan. Bunday ko'rinishdagi yig'ilishlar qirol tomonidan chaqirilgan. Bu yig'ilishlar 947-yildan boshlab Sviyedoda va Leonda chaqirila boshlangan bo'lsa, Konyasda xuddi shu yig'ilishlar 1050-yildan boshlab chaqirilgan. Qolaversa Palensiya, Benevente va Salamankada ham xuddi shunday dvoryanlar va ruhoniylar yig'ilishi chaqirilgan. Bu yig'ilishlar kuriyalar deb ham atalgan bo'lib, ularda asosan xar hil diniy, siyosiy va ma'muriy boshqaruv tartiblariga oid masalalar ko'rib chiqilgan. Lekin bu yig'ilishlar o'z qonunuchilik tashabbusiga ega bo'lmagan. Barcha qonunlar qirol tomonidan chiqarilgan.

Ba'zida faqat dvoryanlardan yoki faqat ruhoniylardan iborat yig'ilishlar chaqirilgan, bunday ko'rinishdagi yig'ilishlar konvent (conventus) yoki

kongregatsiya (ongregatio) deb atalgan. XI asrdan konventlar fuqarolar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish uchun faqat dvoryanlarni chaqiradigan bo'lishdi.

Ana shunday kongregatsiyalardan biri 1137 – yilda qirol Alfons VII boshchiligidagi Naherada bo'lib o'tgan faqatgina dvoryanlar ishtirok etgan majlis ilk marotaba *kortes* nomini oladi. Lekin *kortes* so'zini bunday ko'rinishdagi yig'lishlarga nisbatan ishlatish unchalik ham to'g'ri emas edi. Bu yerda masala munisipalitetlar yoki o'z – o'zini boshqaruvchi shaharlar vakillarining yig'ilishi haqida bormoqda, qaysiki bu yig'ilishlarda ularning o'zlari zodagonlar yo ruhoniylar ishtirokida, ba'zan har ikki tabaqa ishtirokida u yoki bu masala yuzasidan qaror qabul qilishgan. Aslida *kortes*larga xos hususiyat bu unda xalq elementlari, yani uchunchi tabaqa (*brazollano*) ishtirok etishi bo'lgan. Ana shunday tartibdagi ilk *kortes*lardan biri 1188-yilda Leonda qirol Alfons IX davrida chaqirilgan. Yepiskoplar, zodagonlar va shaharliklar vakillarini to'plangan qirol mamlakatda joriy etilayotgan qonunlarni va an'analarni xurmat qilishga, ularning rozilgisiz urush yoki tinchlik sulhi tuzmaslikka va'da beradi. O'sha davrdan boshlab *kortes*larning Leonda chaqirilishi ko'paygan.⁴⁴

Kastiliyada esa bunday ko'rinishdagi *kortes*lar 1250-yildan so'ng vujudga keladi. Leon va Kastiliya qirolliklar birlashganidan so'ng, uzoq vaqt davomida *kortes*lar ikkala qirollikda ham alohida-alohida o'tkazilgan. Shundan xulosa qilish mumkinki, Pireney yarim oroli va umuman Yevropada ilk marta Leonda qirol ishtirokisiz munisipalitetlar vakillari majlis o'tkazib, xalq yig'ilishiga to'planishgan.⁴⁵

Biroq 1170-yilda Kastiliya qiroli Fernanda II oliy amaldorlar va ruhoniylar, shuningdek shaharl kabalyeroslaridan iborat kengashga murojaat qilganligi ma'lum. Shahar vakillarining ana shunday umumtabaqaviy muassasalarda ishtiroki to'g'risidagi navbatdagi ma'lumot 1187-yilga tegishli. O'sha yili shaharliklar, yepiskoplar va magnatlar bilan birga qirol kuriyasi tarkibida infant Bereguelili bilan imperatorning o'g'li Konrad Gogenshtaufen bilan nikohi masalasini Fridrix

⁴⁴ Корсунский А.Р. История Испании IX – XIII веков (социально экономические отношения и политический строй Астури-Леонского и Леона-Кастильского королевства). М., «Высшая школа», 1976, С.193.

⁴⁵ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.С. 185.

Barbarossaning elchisi bilan muhokama qilish uchun to'plangan edi hamda ular nikoh shartlarning bajarilishining guvohlari bo'lishdi. ammo mazkur yig'ilishda ishtirok etgan shaharliklar tabaqasini to'raligicha boshqa tabaqalar bilan teng huquqda edi deb ayto olmaymiz.⁴⁶

Aragonda tabaqalar. Kortoslarning paydo bo'lishi.

Agar yuqoridagi Leon – Kastiliyadagi tabaqalar bilan Aragon tabaqalarini solishtiradigan bo'lsak u holda ular o'rtasidagi kattagina farqni kuzatish mumkin. Aragon dvoryanlari uchun murakkab ierarxiya tizimida tabaqalanish va katta despotizm xosdir. Bu yerda ham dvoryanlar bir necha kategoriyalarga bo'lingan. Ularning birinchisiga *rikos ombres de natura* mansub, ular o'zlarini birinchi zabt etuvchilarning avlodlari hisoblashadi. Qirol ularga harbiy xizmat evaziga gonor bergan. Aragonda infonsonlar sifatida soliqlarni to'lashdan ozod etilgan va harbiy xizmatga majbur bo'lmaganlar kategoriyasi tushunilgan. Istesno tariqasida ular joylashgan qal'alar yaqinida yoki yirik harbiy kompaniya vaqtida ular harbiy xizmat o'tab berishga majbur bo'lishgan. Aragondagi ruhoniylar Leon – Kastiliyadagi ruhoniylar teng martabada bo'lib, yirik yer egalari va ayni vaqtda cherkov yustisiyalari boshliqlari hisoblanishgan.

Shaharliklardan iborat bo'lgan o'rta tabaqa vakillari ham Aragonda ikki kategoriyaga bo'lingan. *Burgeses* – erkin kasb egalari bo'lgan fuqarolar va *ombres de kondison* – hunarmandlar, ishchilar va shu kabilar.

1035 yilda paydo bo'lgan Aragon monarxiyasi garchi Ramiro I davrida absolyutizm shakliga yaqinlashgan bo'lsa ham, ammo muhim masalalarda qirol baribir dvoryanlar bilan maslahatlashishga majbur bo'lgan. XI asr oxirlaridan Aragonda umumiy assambleyalar chaqirib turilgan. Lekin bu yig'ilishlar a'zolarini asosan zodagonlar, amaldorlar hamda diniy vakillar tashkil etgan. Ayrim olimlarning fikricha assambleyalarning ishida 1274-yilgacha (ya'ni XIII asr oxirigacha) oddiy xalq vakillari ishtirok etmagan yoki shaharlar bu davrda katta rolga ega bo'lishmagan. Lekin shu sanadan boshlab kortes a'zolari to'rt tabaqadan (*brazos*) tashkil topgan, ular: yuqori tabaqa (*rikos ombres*), kavalyero, ruhoniylar

⁴⁶ Корсунский А.Р. Курсатилган асар...194-бет.

va universidades (erkin shaharlar) va munisipiyalar. Odatga ko'ra korteslarda dvoryanlarning barchasi ham qatnashish huquqiga ega bo'lmaganlar, ya'ni qirol kimlarni taklif etsa shular ishtirok etgan. Shuningdek shaharlarning barchasi ham korteslarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lmaganlar. Kastiliyada bo'lgani singari Aragonda ham shaharlardan faqatgina bir nechta ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan korteslarga 400 xonadondan kam bo'lgan qishloq vakillarini taklif etmaslik tartibi joriy qilindi. 1163-yilda Saragosada o'tkazilgan korteslarda Uesk, Xak, Tarason, Kalatayud va Darok prokuradorlari qatnashishgan. Komunnidades xalq tabaqasining bir qismini tashkil qilgan. Kortesar qirol tomonidan chaqirilgan. Qirollik qonunlariga binoan kortesar har 5 yilda bir marta chaqirilishi kerak bo'lgan, keyinchalik bu 5 yillik muddat 2 yillikka qisqaradi. Lekin bu qonunlarga qirollar doim ham amal qilishmagan. Kortesar oldida qirollar ularning fueroslarini (yurisdiksiya - sud qilish huquqlarini) hurmat qilishga qasamyod qilganlar, shuningdek taxt vorislariga ham qasamyod qilishgan. Korteslarda qirolga nisbatan qishloqlarda va boshqa joylarda aytilgan haqoratli so'zlar muhokama qilingan va qirolni haqorat qilganlarga qarshi jazo chora tadbirlari ko'rilgan. Shuningdek korteslarda qirolga yordam berish masalalari ham ko'rib chiqilgan. Qirolga odamlar va pul bilan yordam berilgan va qirolga pul ajratilishi qarz (profierta) shaklida bo'lgan. Korteslarda qonunlar ishlab chiqarilgan va qirol bilan birgalikda bu qonunlar ko'rib chiqilgan. Qaror qabul qilinishi uchun barchaning fikri bir joydan chiqishi kerak bo'lgan. Korteslarda ovoz berish katta shaharlar bir nechta ovozga ega bo'lgani holda kichikroq shaharlar esa faqat bitta ovozga ega bo'lishgan. Kortesar yig'ilishi xuddi Kastiliyadagi singari o'tkazilgan.

Agar qirol o'limidan so'ng taxt uchun uning vorislari bo'lmasa, bu holda korteslarning favqulotda sessiyasi chaqirilgan va u parlament (parlamento) nomi bilan atalgan. Bu sessiyada taxt vorisi masalasi ko'rib chiqilgan. Borxe shahrida o'tkazilgan shunday sessiyalarning birida Aragon taxtiga Ramiro Monaxni saylov orqali o'tqazishadi.

Aragon va Kataloniya o'rtasida tashkil etilgan uniya korteslarning birlashishiga olib kelmadi. Har bir davlat kortesi o'z yurtida doimgidek faoliyatini

davom ettirdi. Aragon korteslari Saragosa shahrida yoki Aragonning boshqa shaharlarda o'tkazilgan bo'lsa, Kataloniya korteslari doimgidek Barselonada tashkil etilishi davom ettirilgan. Valensiya bosib olinganidan so'ng, bu shahar kortesi mustaqil faoliyatini davom ettirdi. Yuqorida aytib o'tilganlarga qaramay bu uch davlat vakillari umumiy masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun uchta davlat tabaqa vakillari to'plangan umumiy korteslarda yig'ilishgan. Odatda bunday ko'rinishdagi korteslar Monson shahrida chaqirilgan. Kortessessiyalari oraliqidagi tanaffuslar vaqtida Doimiy Deputatsiyalar (Diputacion Permanente) deb nomlangan majlislar ishga tushgan, uning vazifalariga qonunlarning bajarilish va jamiyatning umumiy harajatlarini nazorat qilish kirgan.⁴⁷

Kataloniyada tabaqalar va umumtabaqaviy muasasalarning paydo bo'lishi.

Berenger – Ramon I (1018-1035-yy) hukmronligidan to'xtatib Ramon-Berenger IV (1131-yil) to'xtatib kelguniga qadar Kataloniya mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan. 1137-yilda davlat Aragon bilan uniya birlashdi. Amalda Katalon jamiyati Aragon jamiyati bilan bir hil taraqqiyot darajasida bo'lganligi bois uniya hech qanday bir sezilarli o'zgarishni olib kelmadi. Kataloniyada feodal iyerarxiyasi quyidagi kategoriyalardan iborat bo'lgan: graflar, vikontlar, valvasorlar va vassallar. Valvasorlar deb feodga yer olgan va qo'lida 5 nafar ritsari bo'lgan qatlarga aytilgan. Yuqoridagi kategoriyalarning dastlabki uchasi dvoryanlar tabaqasini tashkil etgan.

Kataloniyada o'rta tabaqani tashkil etuvchi shaharliklar Aragondagi shu tabaqadan farq qilgan. Bu tabaqaga sohil bo'yi hududlarida istiqomat qiluvchi savdogarlar va dengizchilar; sen'orlarga qaram bo'lmagan aholilar kirgan.

Kataloniya korteslari faqatgina uch tabaqadan tashkil topgan: ruhoniylar, harbiylar yoki dvoryanlar va qirollik toifalar (tabaqalari). Qirollik toifasiga o'z sindiklarini korteslarga jo'natib turuvchi shaharlar kirgan. 1218-yilda Vilafrankda o'tkazilgan Xayme I rahbarligidagi kortes yig'ilishlarida bu shaharlar ishtirok etgan. Shaharlarning huquqlari 1282-yilgi konstitutsiyada to'liq tasdiqlangan, uni

⁴⁷ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.С. 207.

Pedro III tasdiqlagan (Barselonada o'tkazilgan korteslarda). Aragondagi Saragosa shahri ega bo'lgan beshta ovozga Kataloniyada ham ega bo'lgan. Bu besh ovoz yordamida Barselonaning kortesdagi ta'siri boshqa shaharlarnikiga nisbatan kuchli bo'lgan. Bu nomutanosibliklar masalasida boshqa shaharlar ko'p marotaba shikoyat bilan chiqishgan va ularga ham shunday imkoniyatlar berilishini talab qilishgan. Aragon bilan uniya tuzilganidan so'ng ham Kataloniya korteslari Aragondan mustaqil ravishda chaqirilishda davom etgan. Kortess yig'ilishlarining o'tkazilish tartibi boshqa hudud ispan korteslari bilan bir xil bo'lgan. Qirolga subsidiyalar berilishi masalalari ko'rib chiqilishidan oldin, shaharlar va alohida kishilarning qirollikdagi mansabdor shaxslarga (greuges yoki agravis – yetkazilgan zararlar bo'yicha ish) qarshi qaratilgan shikoyatlari ko'rib chiqilgan. Agarda biror bir deputat ularning qarorlariga qarshi chiqsa yoki uni boshidan ko'rib chiqilishini talab qilsa, u holda sessiya oxirigacha davom ettirilmagan. Kataloniyadagi korteslarda asosan katalon yoki lotin tili ishlatilgan. Qirol tomonidan taklif etilib, korteslarda qabul qilingan qonunlar konstitutsiya deb atalgan. Bir yoki bir nechta tabaqa vakillari tomonidan taklif etilib qabul qilingan qonunlar kapitula (capitulos) va kortes aktlari deb atalgan.⁴⁸

Navarrada dastlabki korteslar.

Doimiy ravishda Kastiliya va aragoniya raqabatida maydonida yashab kelgan Navarra qirolligida ham dvoryanlar tabaqasining uchta kategoriyasi mavjud bo'lgan. Bular rikos ombres, kavalyero va infonsonlar. Doimiy seneorlar, yirik yer eglari va shaharlar o'rtasidagi kurashlar girdobiga tortilganligi uchun ham Navarrada korteslar boshqa ispan davlatlaridagi kabi umumtabaqaviy muassasa holatiga aylana olmadi. XIII asr oxirigacha Navarrada korteslar bo'lmagan. Ammo XI – XII asrlar davomida dvoryanlarning yig'ilishi yoki xuntasi chaqirilib turilgan. Ularning majlisida shaharlar, ruhoniylar va erkin kishilarning vakillari ishtirok etgan. Lekin bular ham juda kamdan – kam holatlarda, o'ta muhim ahamiyatga ega

⁴⁸ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.С. 214.

voqealar munosabati bilan chaqirilgan. Masalan 1134-yilda Garsiya IV ning taxtga chiqishida hamda Teobald II ning ulg'ayish yoshiga yetishida chaqirilgan.⁴⁹

⁴⁹ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.С. 219.

II.2. Kortestlarning chaqirilish tartiblari, unda ishtirok etuvchi tabaqalar va ilk kortestlar faoliyati

Dastlabki kortestlar xuddi qirol kengashlari singari doimiy tarzda chaqirilmagan va ularning sessiyalarida aniq tartib o'rnatilmagan. Qolaversa, ayrim qirollar kortestlarni har ikki-uch yilda bir marotaba chaqirishga intilganlar. Hech kim xoh u dvoryanlar yoki munitsapalitet (o'z-o'zini boshqaruvchi yoki erkin shaharlar) vakillari yoki bo'lmasam ruhoniylar tabaqasiga mansub kishi bo'lsin o'z-o'zining xohishicha kortes qatnashchisi bo'lolmagan. Qirol har doim ham bir xil kishilarni kortesga chaqirmagan, shuning uchun ham kortes tarkibi doimiy bo'lmagan va u doimiy tarzda o'zgarib turgan. Vaqt o'tishi bilan kortesdagi shahar vakillari bo'yicha ma'lum bir qoidalar ishlab chiqilgan. Ma'lum bir erkin shaharlarga kortestlarga o'z vakillarini jo'natish huquqi berilgan. Huddi shunday huquqlar dvoryanlar va ruhoniylar orasida ham yo'lga qo'yilgan. Dvoryanlar va ruhoniylar kortes yig'lishlarida bitta ovoz berish huquqiga ega bo'lganlar. Syudadonas (ciudadanos-fuqaro), ombres buenos, personers, mendaderos va keyinchalik prokurador deb ataluvchi munisipalitet vakillarining korteslardagi soni shaharlar miqdoridan kelib chiqib ko'p bo'lgan va ular kortes yig'ilishlariga o'z deputatlarini yuborgan. Ayrim shaharlar kortes qoidalariga bo'ysunmagan holda o'z shaharlaridan ikki-uch yoki undan ortiq vakillarni jo'natishardi. Chunki kortestlarga taklif shahar nomiga berilgan. Shaharlarning o'zi kortesga kimni yuborishni hal etgan. Boradigan shaxs shu shaharlardagi saylov yoki qur'a yo'li bilan, shuningdek navbat tartibi bilan tanlangan.

Kortestlar o'z tartibiga ko'ra maslahat beruvchi organ bo'lgan. Kortestlar qonun chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar, garchi ular qirolga o'z petitsiyalarini taqdim etish huquqiga ega bo'lsalar ham. Shunday bo'lsa ham ayrim masalalarni hal etish ularning vakolatlari doirasiga kirgan. Jumladan, qirol so'ragan ayrim soliqlarni yig'ishga ruxsat bergan. Undan tashqari mamlakat ichki siyosati bilan bog'liq bo'lgan monarx tomonidan qabul qilingan qarorlarni ratifikasiya qilish, regentlik kengashini tuzish, taxt merosxo'ri masalalarini ham muhokama qilgan. Kortes huzurida qirol davlatning qonunlari va fuerosga sodiqlik

haqida qasamyod qilgan. Kortestardagi har bir tabaqa vakillari o'zlarining ko'rsatmalar to'plamini tuzishgan (enadernos), bu ko'rsatmalarga har bir tabaqa vakillari - shaharliklar, ruhoniylar, dvoryanlar o'z tavsiyalarini, shikoyatlarini va takliflarini kiritganlar. Ko'rsatmalar qirolga taqdim etilgan va qirol ularni ko'rib chiqib u yoki bu qarorni qabul qilgan. Lekin doim ham qirol kortestlarga bergan va'dalarining ustidan chiqmagan. Urush bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda qirol kortestlar bilan hisoblashib o'tirmagan.⁵⁰

Kortestlar odatga ko'ra qirol tomonidan chaqirilishini aytgan edik. Ammo ba'zan bu qoidaga amal qilinmagan. Masalan 1282-yilda Valyadolidda kortes yig'ilishi taxt merosxo'ri masalasi uchun hech qanday monarx taklifsiz to'plangan. 1295 va 1313- yillardagi Vabyadoliddagi, 1312-yilgi Palensiyadagi kortestlar yig'ilishini ham shu holdagi kortestlarga kiritish mumkin.⁵¹

Keyinchalik mamlakat boshiga og'ir kunlar tushganida qirol kortestlarga ko'proq imkoniyat berishga majbur bo'ladi.

Kortestlar o'z faoliyatini boshlagandan so'ng, asta-sekinlik bilan ularning ichki reglamentlari (tartiblari) vujudga keladi. Reglamentga ko'ra kortes uchun umumiy belgilar belgilab qo'yiladi, unga ko'ra: kortestlarning ochilish va yopilish marosimlari tantanaviy ravishda o'tkaziladigan bo'ladi. Bu marosimlarga qirol raislik qilgan. Keyingi kortes majlislarida umumiy qoidalar asosida dvoryanlar yoki ruhoniylar qirol tomonidan raislikka tayinlangan.

Kortestlarda qirollik notariusi yoki qirollik bosmaxonasi vakillari kotiblik qilishgan. XV asr oxirlarida kortestlarda asosan munitsapalitet (erkin shahar) vakillarining vazifalari muhokama qilingan, shuningdek ularning shahar tomonidan qo'yilgan vazifalarni bajarishlari nazorat qilingan. O'z vazifasini bajarmagan yoki ko'rsatmalarga bo'ysunmaydigan amaldorlar, vakillar shafqatsiz jazolangan, ba'zi hollarda ular qatl ham etilgan.

Kortes majlislari odatda yopiq holatda o'tkazilgan va undagi tabaqalar o'zlari bilan bog'liq ishlarni tabaqasi bilan birgalikda alohida muhokama qilgan.

⁵⁰ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.С. 186.

⁵¹ Корсунский А.Р. Кўрсатилган асар...197-бет.

Majlis qatnashchilari va qirol o'rtasidagi aloqalar elchilar (embajadores) yoki xabarchilar (mensajeros) yordamida olib borilgan.⁵²

Dastlabki korteslar yig'ilishining aniq bir shaharda o'tkazilishi qoidasi bo'lmagan. O'sha vaqtda qaysi shaharda qirol rezidensiyasi joylashgan bo'lsa, odatda shu shaharda kortes yig'ilishi o'tkazilgan. Ko'pincha XIII asrlar davomida Valyadolidda, Burgosda, Medine del Kampoda, Palensiyada korteslar chaqirilgan.

Ba'zan korteslarda ishtirok etuvchi deputatlarning ta'minoti yo'lga qo'yilgan. 1250-yilda Fernando III Segoviyadan kelgan har bir deputat uchun agar yig'ilish Toledo va musulmonlar bilan chegara hududida o'tkazilsa kuniga bir maraveddan, agar Toledodan shimolda o'tkazilsa, kuniga yarim maraved to'lashni joriy qilgan. Garchi qirollar korteslar yig'ilishiga chaqirilgan deputatlarning shaxsi daxlsizligini e'lon qilgan bo'lsa ham, ammo o'zaro urushlar sharoitida bunga to'liq rioya qilib bo'lmasdi. Masalan 1271-yilda Alfons X taklifiga magnatlar to'jonlarini omon saqlash mumkin bo'lgan umumiy xavfsizlikka erishilmaguncha kortes yig'ilishlarida qatnashmasligini ma'lum qilganlar.

Garchi korteslar faoliyati yo'lga qo'yilgan dastlabki asrlarda ularning yig'ilishlari muntazam bo'lmasa ham, lekin tez – tez chaqirilib turilgan. Alfons X davrida (1252-1254 – yy) jami 16 marta, Sancho IV davrida 5 bora korteslar chaqirilgan.⁵³

Shu yillar davomida chaqirilgan korteslarning majlislari davomiyligi turlicha bo'lgan: o'n – o'n ikki kundan ikki oygacha cho'zilgan holatlar kuzatilgan. Fernando III davridan Leon va Kastiliyaning birlashgan korteslari chaqirila boshlangan. 1283-yildan hukmdorlar tabaqalar tomonidan norozilikka sabab bo'lmaslik uchun juda kam hollardagina har ikki sobiq davlatlarning korteslarini alohida chaqirgan. 1301-yilda Burgosda to'plangan faqat kastiliyaliklardan iborat kortesda qirolidan barcha qirollik hududlaridan birgalikda kortesga deputatlar chaqirishni so'ragan.

⁵² Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951. стр. 186-187.

⁵³ Корсунский А.Р. Курсатилган асар...198-бет.

Kortesning birinchi yig'lishida qirol dastavval barcha yig'ilganlarni qutlab so'ng ularni o'z vazifalarini chin ko'ngil bilan bajarishga dav'at etgan, keyin yozma yoki og'zaki ravishda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan vazifalarni kortes ishtirokchilariga taqdim etgan. Kortess vakillari qiroлга ruhoniylar yoki o'z vakillari orqali javob qaytarishgan. So'nggi majlisda odatda qirol qisqacha so'zga chiqqan.

Korteslarni umumtabaqaviy muassasa deb tan olishning birinchi sharti unda yuqorida keltirib o'tgan tabaqa vakillarining ishtirok etishlari bo'lgan. Xo'sh, ispan korteslarida qaysi tabaqalar qatnashgan. Ispaniya korteslarida birinchi tabaqaning Fransiya shtatlaridan farqli ravishda dunyoviy feodallar (estado militar) tashkil etgan. Ularning birinchi navbatdagi vakillari rikos ombreslar bo'lishgan. Aftidan qirol ularni maxsus ravishda taklif etgan. Xronikalardagi ma'lumotlarga ko'ra, 1241-yilda Burgosdagi kortesda qirol «rikos ombres va yer odamlari bilan» majlis o'tkazgan. «Yer odamlari» deganda mustaqil faoliyat yuritishni qo'lga kiritgan shahar va qishloq jamoasi vakillarini tushunish mumkin. Birinchi tabaqaning quyi bo'g'inlarini tashkil etuvchi amaldorlar – infansonlar, idalgolar birinchi marta 1250-yilgi kortes yig'ilishlarida paydo bo'ldi va keyingi yig'ilishlarda muntazam ishtirok etadigan bo'ldi. Fransiya'dagi ruhoniylar tabaqasidan farqli ravishda ispan korteslaridagi ruhoniylar tabaqasi ham xuddi birinchi tabaqa singari ikki kategoriyaga – qatlamga bo'lingan va birgalashib ikkinchi tabaqani tashkil qilgan. Ulardan yuqori qatlamga Santyago, Toledo va Sevilya arxiyepiskoplari, yepiskoplar, abbatlar va diniy – harbiy ordenlar magistrarlari mansub bo'lgan. Quyi kategoriyaga kapitullar kliriklari va quyi pag'ona ruhoniylari kirgan. Ulardan birinchi kategoriya vakillari o'zlarining shaxsiy huquqlari evaziga bevosita korteslar yig'ilishida ishtirok etgan bo'lsa, quyi pag'onadagilar o'zlarining vakillarini yuborishgan. Ana shu oxirgi qatlam birinchi marta kortes yig'ilishlarida 1295-yilda paydo bo'ldi va bundan keyingi korteslarda ham doimiy ravishda ishtirok etmagan.⁵⁴

Uchinchi tabaqa (estado llano) shahar jamoasi vakillaridan tarkib topgan. Shaharlarning kortes yig'ilishlarida ishtirok etish tartibi qat'iy belgilab

⁵⁴ Корсунский А.Р. Курсатилган асар...196-бет.

qo'yilmagan. Qaysi shaharlardan vakil kelishini qirolning o'zi belgilab bergan. O'zlarining kengashi (konsexo) mavjud bo'lgan manzilgohlar korteslar yig'ilishlarida vakillari orqali ishtirok etishlari mumkin bo'lgan. Agar shaharlarda bunday kengash bo'lmasa, ular korteslarda ishtirok etishdan mahrum bo'lishgan. Toledo shahri 1348-yildan korteslarda deputatlari bilan qatnashadigan bo'ldi. Ba'zi holatlarda o'z sen'orlariga ega bo'lgan qishloq jamoalari ham kortes yig'ilishlarida ishtirok etganligini aytish kerak.

Kortes yig'ilishlarida ishtirok etgan shaharliklar vakillarining asosini odatda shaharning yuqori mansabdor qatlamlari tashkil qilgan. Korteslarda savdogarlar va hunarmandlarning ishtiroki deyarli kuzatilmagan. Faqat birgina holatda, unda ham kortes yig'ilishida turli mahsulotlarning narxlari muhokama etilayotganligi uchun ham 1268-yilgi Xeresdagi kortesda savdogarlar toifasi qatnashgan.

Ba'zi hollarda korteslarda qishloqlardan dehqonlar vakillari ham qatnashganligi ma'lum. Tadqiqotchi V.Piskorskiy 1268-yilda Xeresda o'tgan kortes yig'ilishi bayonnomasida keltirilgan qishloqlarning «mo'tabar kishilari»ni ana shu toifa vakillari deb hisoblaydi. Aftidan ular dehqonlarning boy toifasiga mansub kishilar bo'lgan bo'lsa kerak. Vaqtlar o'tishi bilan korteslar eshiklari bu toifa uchun deyarli to'lig'icha yopib qo'yildi. XV asrning boshlarida Palensiya korteslaridagi deputatlar petitsiyalarida qirol dan korteslarga dehqonlarni va umuman quyi tabaqaga mansub shaxslarni qo'ymaslik so'ralgan edi.⁵⁵

Garchi dehqonlar tabaqasi bevosita korteslar ishida ishtirok etish huquqlariga ega bo'lmasa ham, mamlakatning iqtisodiy hayotida ularning roli borligi uchun ham korteslar yig'ilishlarida ularga oid masalalar tez – tez ko'rib turilgan. Masalan korteslardagi qarorlarga ko'ra amaldorlarga o'z xohishlariga qarab begetriyalardan konducho olish, kafolat mulki (zalog) sifatida dehqonlarning yer haydaydigan qo'shchi ho'kizlarini olmaslik, konsexo hukmronligidan ozod bo'lishga intilgan dehqonlarga konsexolarning jabr o'tkazmasliklari belgilangan edi.⁵⁶

⁵⁵ Корсунский А.Р. Курсатилган асар...196-197 бетлар.

⁵⁶ Пичугина И.С. Крестьянство и кортесы Кастилии во второй половине XIII – первой половине XIV в. – В кн.: Европа в средние века. М., 1972. С.194.

Korteslar shakllangan dastlabki asrlardagi ularning faoliyati va mavjudligi borasida tarixshunoslikda turlicha fikrlar ilgari suriladi. XIX – asrning boshlaridayoq taniqli ispan tarixchisi Martines Marina korteslarga qirol hokimiyatini cheklovchi tabaqaviy organ sifati baho bergan. V.Piskorskiy bo'lsa bu mahkamaning demokratik xarakteriga e'tibor qaratadi. L.Valdeavellyano Leon – Kastiliya siyosiy hayotida koteslarning real o'rniga baho berib, ularning rozilgisiz qirol qonunlarni va fueroslarni bekor qila olmaganligini ta'kidlaydi.

A.Ballesteros va K.Sanches – Albronoslar korteslarning ahamiyatini yana ham yuqori baholaydilar. Ayniqsa ularning oxirigisi Alfons IX ning 1188-yildagi dekretini «Buyuk ispan xartiyasi» (Carta magna espanola) deb ataydi. U bu xartiyani inglizlarning Buyuk erkinliklar xartiyasidan yuqori turishini ta'kidlaydi. Agar inglizlarning xartiyasida yuqori tabaqa vakillarning imtiyozlari tan olingani holda qirol hokimiyatining cheklanishi xarakaterli bo'lsa, ispan xartiyasida xalqqa tinchlik va adolatni berish, magnatlar tomonidan adolatsizliklarga yo'l qo'ymaslik, klir foydasiga xalq pullarini ko'kka sovurmaslik, «uchta tabaqa bilan kelishish» singari holatlar uqtirilgan edi.⁵⁷

M.Torres Lopes, D. O'Kallagen, G.Post kabilar boshqacha fikr bildirishadi. Ularning mulohazalariga ko'ra korteslar monarx rahbarligi va nazorati ostida bo'lgan maslahat organini namoyon etgan xolos. D. O'Kallagen Alfons IX ning dekretini inglizlarning Buyuk erkinliklar xartiyasi bilan taqqoslar ekan, u inglizlarda bo'lgani singari baronlar va qo'zg'alonchilar tarafidan o'z haq – huquqlari zo'rlik bilan talab qilib olingan hujjat emas, deb keltiradi. Bu hujjatning bosh tashabbuskori qirolning o'zi bo'lib, magnatlarning xalqqa ko'rsatayotgan jabr – zulmiga qarshi chiqish orqali, bo'ysunmas va isyonchi magnatlar ta'siri sindirish maqsadida shaharliklarning qo'llab – quvvatlashiga erishmoqchi bo'lgan,-deb keltiradi tarixchi. Bu dekret Leon – Kastiliyaning keyingi qirollari tomonidan tan olinmadi, aholi bo'lsa mazkur dekterda o'zlarining haq – huquqlari bo'yicha hech qanday asosni ko'rishmadi.⁵⁸

⁵⁷ Корсунский А.Р. Кўрсатилган асар...202-бет.

⁵⁸ Корсунский А.Р. Кўрсатилган асар...203-бет.

X.Manuel Peres – Prendes va Munos de Arrako fikrlariga ko'ra, o'rta asrlar ispan korteslarini fransuz General shtatlari yoki ingliz Parlamenti bilan bir qatarga qo'yib bo'lmaydi. Bu yerdagi yuqori tabaqani tashkil etuvchi dvoryanlar va ruhoniylar alohida tabaqa bo'lmasdan (huddi Fransiyadagi kabi), balki siyosiy – ma'muriy apparatning vakillari sifatida namoyon bo'ladi. Shaharlardan kelgan deputatlar bo'lsa qiroлга emas, boshqaruvning oliy amaldorlari hisoblangan zodagonlar (dvoryanlar) va ruhoniylarga qarshi chiqishgan. Kortselarning asosiy faoliyat markazi bu – hukmdorga maslahat va yordam berishdan iborat bo'lgan. Kortesar qiroл hokimiyatini cheklovchi organ bo'lmagan. Aksincha, ular monarx tomonidan boshqariladigan vosita edi.⁵⁹

So'nggi o'rta asrlar davrida, ya'ni Ispaniyada ham absolyutizm qaror topgan bir davrda kortesar strukturasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermadi hisob. 1480-yilda korteslarda ovoz berish huquqiga 17 ta shahar ega edi (Galitsiya bitta ham ovozga ega bo'lmagan); keyinchalik Granada ham ovoz huquqiga ega bo'ldi, 1506-yilga kelganda deputatlarning iltimosiga binoan korteslarga deputalarini yuboradigan shaharlar soni aniq belgilanib olindi. Deputatlarni saylash odatga ko'ra har yili har bir shaharning kengashi tomonidan (ya'ni amaldor shaxslar, alkaldlar, rexidorlar, kengash a'zolari va boshqalar bilan hamkorlikda) amalga oshirilgan, bu jarayonda oddiy xalq ishtirok eta olishmagan. Ko'pincha rexidorlar va prisyajniylar (advokatlar) saylangan, ba'zan qiroл deputatlarni o'zi tayinlash huquqidan foydalangan. Deputatlarga huddi Fransiyadagi kabi imperativ mandat berilib, ya'ni ularga nimalarni amalga oshirish aniq va batafsil izohlab berilgan. Doimo shaharlarning e'tirozi tufayli, endi deputatlarga yo'l harajatlari (140 maraved miqdorida) beriladigan bo'ldi. Asta – sekin deputalarning harajatlari qiroл xazinasiga hisobiga amalga oshirila boshlandi. Bu keyinchalik ular uchun juda ayanchli oqibatlariga olib keldi, ya'ni ular hukmron qatlamga bo'ysinuvchi shaxslarga aylanib qola boshladi. Odatga ko'ra kortesar yig'ilishi yopiq o'tkazilgan va unga qiroлning o'zi raislik qilgan, agar kasalligi bu ishga halaqit qilmasa. 1515-yilda Burgosda o'tgan kortes yig'ilishida kasal qiroл Ferdinand nomidan yig'ilishga yepiskop Burgoskiy raislik qilgan.⁶⁰

⁵⁹ Корсунский А.Р. Курсатилган асар...203-бет.

⁶⁰ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.стр. 464.

II.3. O'rta asrlarda Ispaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida korteslar

XIII asr ikkinchi yarmidan boshlab korteslarning nufuzi ko'tarila boshladi va butun XIV asr davomida korteslarning mavqei ko'tarilishi davom etdi. Kortesar nufuzining tushishi XV asrdan boshlanadi. Ma'lumki, hatto qirol **Alfons X** o'zining qonunlar to'plamida ya'ni («Partidalar»da) kortesar haqida umuman so'z yurutmaydi. Korteslarning XIV asrning birinchi yarmida siyosiy ta'siri kuchayadi. Kortesar nufuzining ko'tarilishini asosiy sababi qirolning aslzodalar va yirik feodallarning bosh-boshdoqliklari kuchayib ketishiga qarshi kurash uchun erkin shaharlar yordamiga tayanishga intilishi bo'ldi. Shu davrda korteslarning asosini yuqorida aytib o'tilgan shaharlar tashkil etar edi. XIV asrning ikkinchi yarmida, ya'ni Trastamara sulolasining ilk qirollari davrida (Enrike II, Xuan I va Enrike III) korteslarning ta'siri yanada kuchaydi, buning sababi shunda ediki, Trastamaralar o'z hokimiyatlarini mustahkamlash uchun korteslarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirgan edilar. Qirol Xuan II ning XV asrda chiqargan qonunlariga e'tibor bersak, bu davrda kortesar davlat siyosatida o'z o'rinlariga ega bo'lganliglarini ko'ramiz. Keyinchalik kortesar qirolga zarur bo'lgan vaqtlarda chaqiriladigan bo'ladi va korteslardagi voqealar rivojining barchasi qirolga bog'liq bo'lib qoladi. Kortesar faoliyati qonunchilikka umuman ta'sir etmasdi, kortesar faqat iqtisod bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqardi va shu uchun ham kortesar yig'lishiga shaharlarning qiziqishi yuqori edi. Qirollar Ferdinand IV va Alfons XI davrida korteslarning alohida huquqlari qaytadan tasdiqlanadi va unga ko'ra, kortesar rozilgisiz hech qanday yangi soliq kiritilmasdi. Kortesar ham o'z navbatida qirolning huquqlarin cheklashga harakat qilmaganlar. Shuningdek kortesar Xuan II va uning avlodlarining asosiy maqsadi bo'lgan «Mutloq Qirol hokimiyati» tamoyiliga unchalik e'tibor berishmaydi, buni shuningdek qonunchilikda ham yaqqol ko'rsak bo'ladi, unga ko'ra Rim huquqiy normalariga mos holda quyidagi so'zlar ishlatilardi: Qirol nimani ma'qul deb bilsa qonun ham shu bo'lishi kerak edi. 1387-yilda Briviyeskada o'tkazilgan korteslarda mutlaq prinsip kuchini yo'qotadiganga o'xshab ko'ringandi, bu kortesda qirol Xuan I yangi farmon

chiqardi, unga ko'ra korteslar tomonidan qabul qilinadigan qonunlar bundan buyon bekor qilinmasligi kerak edi. Lekin bu farmon amalda qo'llanilmadi va qog'ozda qolib ketdi. 1387-yilgi farmonni kortes deputatlarining qarshiligiga qaramay qirollarning o'zlari xohlagan vaqtlari ularni buzar edilar.⁶¹

Bundan korteslar qonunchilikdan butunlay chiqib ketishgan deb xulosa qilsak, qattiq yanglishgan bo'lamiz. Qirol tomonidan shaharlarga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda korteslar qirolning qonunchilik bilan bog'liq qarorlarini qo'llab quvvatlagan va ularga ko'plab yangi islohotlar haqida o'z petitsiyalarini taqdim etganlar. Shubhasiz ko'pchilik hollarda korteslar qarorlari kerakli natija bermasdi. Kortesar doimo rasmiy iltimosnomalar berishga majbur edilar, ularda asosan yahudiylar, cherkov benifitsiylari, sud organlarida ishlovchilarning o'z lavozimlarini suistemol qilishlari va boshqa ko'plab masalalar bilan bog'liq muammolar inobatga olingan edi. Lekin ba'zi vaqtlarda korteslar o'z maqsadlariga yetishardi, xatto qirol bilan bog'liq masalalarda ham. Misol uchun 1299-yilda hamda 1325-yilda korteslar xar bir shahar aholisining shaxsiy xavfsizligi va ularning sudlarda qilgan shikoyatlarini tinglash kafolatini oladilar. Bunga o'xshash kafolatlar qirolning sud ishlari bo'yicha hukmlarini cheklab qo'ydi. Bu asosan alohida shaxslarning mulkini qirol xazinasiga foydasiga olinishida yaqqol namoyon bo'ldi. 1329-yilda Madridda o'tkazilgan korteslarda o'zboshimcha amaldorlarni oqlash uchun jo'natilgan, qirol imzosi tushirilgan qirollik yorliqlari taqiqlandi. 1348-yilda Alkalada o'tkazilgan korteslarda qirolidan majburiy oila qurish uchun olinadigan yorliqlar ham taqiqlab qo'yildi. 1351-yilda Valyedolidda o'tkazilgan kortes yig'lishlarida (Korteslarning XIV asrda o'tkazilgan eng muhim yig'lishlaridan biri) deputatlar talon-tarojlik bilan shug'ullanadigan jinoiy guruhlarini hibsga olinishi yoki yo'q qilinishi, qirollik amaldorlari uchun aniq vazifalar qo'yilishi, soliq yig'uvchilarning zo'ravonligiga qarshi choralar ko'rilishini, tuz solig'ini kamaytirilishini va har xil majburiyarlarni yumshatilishini, chorvadorlar va dehqonlar huquqlarini tenglashtirishni, soliq yig'ish ishlarini tartibga solishni, sud organlarida islohotlar o'tkazilishini va

⁶¹ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.стр. 314.

bundan tashqari ko'plab boshqa masalalar talabi bilan chiqishdi. Qirol bularning barchasiga rozi bo'ldi va shu kortes yig'lishida muhum aktlarni e'lon qildi, ya'ni hunarmandlar va ruhoniylar haqida. Oradan bir muncha vaqt o'tib ya'ni 1366-yilda Burgosda o'tkazilgan korteslarda deputatlar yangi talablar bilan chiqishdi, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan edi:

1. Qarz foizlarini kamaytirilishi (Yahudiylardan olinadigan);
2. Jinoyatchilarga qarshi repressiyalar uyushtirish, yani jazo choralarini ko'rish;
3. Shaharlarda militsiya mahkamalari hisoblangan ermandad yoki somaten tashkil etish, yani ispanchasiga;
4. Fueroslarning (Yurisdiksiya-sud qilish huquqi) o'z ishlariga rioya qilishi va mahalliy organlarga imtiyozlar berish.

Bu talablarning barchasi qirol tomonidan maqullandi. 1371-yilda Toroda o'tkazilgan korteslarda sud ma'muriyati bo'yicha, aholining shaxsiy xavfsizligi bo'yicha kafolat, hamda ruhoniylar daromadini nazorat qilish bo'yicha masalalar ko'rib chiqildi. 1373-yilda esa korteslarda muhokama mavzusi sifatida soliqlar yig'lishi va qirollik yustitsiyasini tog'li hududlarda tashkillashtirish bo'ldi.

1377-yilda Burgosda tashkil etilgan korteslarda mavrlarga va yahudiylarga qarz berish, lavozimini sueistemol qilayotgan sudyalar, benifitsiyalar haqida va qirollik sudlari bo'yicha apelyatsiya berish masalalari ko'rib chiqildi. Huddi shu shaharda 1379-yilda o'tkazilgan korteslar yig'lishida kiyimlarga soliq, shuningdek oziq-ovqat va mebellarga ham soliq belgilandi. Qirol sudlarining haftada ikki marta o'tkazilishi tasdiqlandi. Shu korteslarda qirol maslahatchisi lavozimiga uchinchi toyifa vakillari ham tayinlanishi belgilandi, shuningdek qirollik domeni fondidan yer inomlari berilishi taqiqlandi, chet elliklar qasrlarda alkadal lavozimini egallashi ham taqiqlab qo'yildi va notariuslar, sudlar, va boshqa davlat organlarining vazifalarini tartibga solishga oid masalalar ham ko'rib chiqildi. Deputatlar faoliyatida, ularning korteslar chiqaradigan qarorlarni, qiroldan aktlar ko'rinishida chiqarishni talab qilishganini alohida takidlab o'tish lozim. Bunday vaziyatda korteslar chiqargan qarorlar qonun kuchiga ega bo'lgan va ular faqatgina qonuniy akt bilan bekor qilinishi mumkin bo'lgan (faqat korteslar majlislari qabul

qilgan akt bilan qarorlarni bekor qilish mumkin bo'lgan, qirol yorliqlari va boshqa shunga o'xshash hujjatlar korteslar qarorlariga ta'sir o'tkaza olmagan). Lekin qirol bunga o'xshash talablarni qabul qilmagan, chunki qirol bu talablarni o'zining qonun chiqaruvchi huquqlariga zarar yetkazishini yaxshi tushingan. Oradan bir qancha vaqt o'tgach bu talablarni qirol qisman bo'lsa ham qabul qilishga majbur bo'ldi.

1380- yilda Soriyada o'tkazilgan kortes yig'ilishlarini XIV asrdagi korteslar qabul qilingan qarorlarga nisbatan olsak, bu yig'lishda ikkita muhim qaror qabul qilindi, ular:

1. Yahudiylar bilan bog'liq qaror;
2. Alkadallarning shaharlarda saylanishi.

Shuningdek bu kortes yig'lishlarida ruhoniylar bilan bog'liq masalalar va boshqa ko'plab masalalar ko'rib chiqildi.⁶²

Yuqorida aytib o'tilgan misollar korteslarning XIV asrdagi faoliyatini har xillikka boy bo'lganini va ularda ko'plab masalalar ko'rib chiqilganligi va qarorlar qabul qilinganligini ko'ramiz. Shuni takidlab o'tish joizki bu korteslarda qabul qilingan qarorlarning ko'pchiligi stixiyali ravishda, ya'ni tartibsiz qabul qilingan. Kortessessiyalarining kun tartibi ishlab chiqilmagan va sessiyadagi u yoki bu masalalar deputatlarning ko'rsatmalari asosida ko'rib chiqilgan.

Korteslarning tarkibi doim ham bir xil bo'lmagan, ya'ni ularda har xil shaharlardan qo'yilgan vakillar va har xil dvoryanlar, ruhoniylar vakillari ishtirok etgan. Asosan korteslar tarkibi qirol tomonidan belgilangan. Qirolning bu huquqi 1422-yilda Xuan II tomonidan tasdiqlangan. Uzoq vaqt davomida deputatlar vazifalarini nazorat qiluvchi, ko'rib chiquvchi va belgilovchi lavozimlar, ya'ni prezident va uning yordamchisi lavozimlari joriy etilmagan. XV asrning har xil qonunlarida deputatlarni shaharlardan erkin tarzda saylash huquqi belgilangan. Ularda shuningdek deputat lavozimlarini sotib olish bo'yicha qing'ir ishlarni amalga oshirayotgan shaxslar ustidan jazo choralarini ko'rish bo'yicha qarorlar bor. Xuan II ning har bir shahardan korteslarga ikkitadan deputat qatnashishi

⁶² Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.стр. 316.

to'g'risidagi qarori chiqqunga qadar, korteslarda shaharlar yuboradigan deputatlar soni doimiy tarzda o'zgarib turgan. Lekin Xuan II ning qarori amalda doim ham amal qilmagan. Shuningdek Xuan II ning qonunida shaharlar ichki siyosatiga bir muncha o'zgartirishlar kiritilgan, unga ko'ra deputat lavozimiga dehqonlar saylanmasligi belgilangan. 1328-yilda Medinada o'tkazilgan korteslarda har xil qonunlar chiqariladi, unga ko'ra: deputatlar endilikda ovoz berish yo'li bilan yangi soliqlar taqdirini hal qilishadigan bo'lishadi. 1351-yilda deputatlarning huquqlari kafolatlandi, deputatlarning bu huquqlari hozirgi kunda ham Parlament daxlsizligi nomi bilan mavjud, unga ko'ra korteslar ish olib borayotgan vaqtda kortes azolariga qarshi ayblovlar qo'yish man etilgan, shuningdek ularni sudga chaqirish ham man etilgan.

Korteslar tarkibi haqida gap ketganda quyidagilarni takidlab o'tish kerak : Xuan II davrida o'rnatilgan tartiblarga binoan korteslar tarkibi uch tabaqadan (brazos) iborat bo'lishi kerak bo'lgan. Lekin korteslarning shunday sessiyalari bo'lganki ularda Xuan II qonuniga amal qilmaganlar, misol uchun 1391-yilda Madriddagi va 1431-yilda Medinadagi korteslarda faqat shaharlardan vakillar, shuningdek faqat deputatlar va ruhoniylar ishtirok etgan. Bunday korteslar kongregatsiyalar nomini olgan.

XV asrda korteslarda tabaqalar o'rtasida raqobat yoki kelishmovchiliklar kuchayib ketdi, lekin shuni takidlab o'tish kerakki shu davrda barcha qatlamlar qirolga qarshi chiqishlar uyushtiradilar. Shunga o'xshash qarama-qarshiliklar korteslarning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Shuningdek kortesdagi bunday holat shaharlarning siyosiy ahvolini yoki imtiyozlarini og'irlashtiradi. Korteslarda shuningdek ondorlar va alkaldalar ya'ni qirollik sudlari vakillari ishtirok etganlar.

XIV asrning boshlarigacha Leon va Kastiliyada korteslarni alohida – alohida chaqirish odatlari davom etgan. Lekin Alfons X davridan boshlab ikki qirollikning korteslari birlashgan holda 1250 va 1263-yillarda Sevilyada, 1258-yilda Valyedolidda, 1260-yilda Taledoda ish boshlagan. Shu muddat oralig'ida faqat Leon deputatlari ishtirok etgan korteslar 1273-yilda Avilda, 1274 va 1301-yillarda Samorada chaqirilgan bo'lsa, Kastiliya deputatlari qatnashgan korteslar Burgosda

1274 va 1301 – yillarda chaqirildi. 1301-yildan barcha korteslar doimiy tarzda birga chaqirila boshlanadi.⁶³

Ispan korteslari Yevropaning boshqa davlatlaridagi umumtabaqaviy muassasalar singari o'zida feodal davlatning siyosiy tizimida spetsifik xarakterni namoyon etgan. Garchi u maslahat funksiyasini bajargan bo'lsa ham, bu bilan cheklanmagan. Kortesar ayni vaqtda oliy tabaqalar va shaharliklarning kurash maydoniga aylangan. Kortesar hukmdorni boshqaruvning ayrim sohalarida cheklashga muvaffaq bo'lgan, bu birinchi navbatda moliyaviy masalalarda, lekin o'z qarorlarni hayotga tadbiq etish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo'lishmagan. Shunisi xarakterliki, o'z talablarni qirol tomonidan qabul qilinishini ta'minlash uchun yuqori tabaqalar ham, shaharliklar ham xuntalar va germandadalar tuzishga majbur bo'lishgan. Kortesar paydo bo'lishining o'zi jamiyatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlardan darak berardi. Birinchi galda shaharlar nufuzi oshdi, qirol o'z siyosatida konseksolar manfaati bilan ham hisoblashishga majbur bo'ldi.

XIII asrlarning oxirlaridan boshlab kortesar ishida shaharliklar vakillarining ishtiroki ko'proq Leon- Kastiliya qirolligi uchun xosdir. Garchi kortesar qirol hokimiyatini ma'lum darajada cheklashga muvaffaq bo'lishgan bo'lsa ham, ularda shaharliklar vakillari ishtiroki doimiy tusga aylangan bo'lsa ham, ammo to'la ravishda biz uni demokratiyaga yo'ya olmaymiz. Sababi shaharlardan oddiy shaharliklar emas, ko'proq shaharning oliy amaldorlar bo'lmish shaxslar kortesar yig'ilishida ishtirok etgan. Ispan shaharlarida hunarmandchilik va savdoning sekinlik bilan taraqqiyoti, shahar siyosiy hayotida hunarmand va savdogarlarning ta'siri yo'qligi ayni vaqtda ularning korteslarda ham umuman maqega ega bo'lmasligining bosh omili bo'lgan. Agar Angliya va Fransiya shaharliklarning yuqori qatlamida savdogarlar – sudxo'rlar turgan va ular parlament va General shtatlarda shaharlarning tipik vakillari bo'lishgan bo'lsa,⁶⁴ Leon – Kastiliyadagi

⁶³ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.стр. 317.

⁶⁴ Гутнова Е.В. Возникновение английского парламента. М., 1960, С.400, 413; Денисова Н.А. К вопросу о политической роли горожан в Генеральных штатах Франции начала XIV в. – «Вестник МГУ». Сер. IX, история, 1966, № 3, С.67.

korteslarda shaharlar vakillarining yadrosini kabalyeroslar va shaharlarning badavlat dehqonlari tashkil qilishgan.⁶⁵

XIII – asrlarning o'rtalariga kelganda Pireney yarim orolida rekonkista harakati ma'lum muddatga to'xtadi. Arablarning yarim oroldagi oxirigi mulki hisoblangan Granada 1340-yildagi Salado jangida xristian qo'shinlaridan yengilganidan keyin, qolaversa shimoliy Afrikadagi berberlarning Al – Andalusiyaga yordam bermay qo'yishlari natijasida o'z taqdirini o'ylab shimoldagi xristian qo'shinlari bilan tinchlikda yashashga harakat qilishdi. Kastiliya va Aragon bo'lsa doimo bir – birining chegaralari uchun kurashlarga kirishadi. 1479-yilda har ikki davlat taxti merosxo'rlari – infant Izabella va shahzoda Ferdinandning nikohidan so'ng ikki qirollik yagona davlatga birlashdi. Hech qanday bir katta rol o'ynamagan Navarra Fransiya va Aragoniya o'rtasidagi kelishuvdan so'ng taqsimlanib olindi. 1492-yilda Aragon va Kastiliyaning birlashgan qo'shinlari Granada askarlarini yengib, rekonkista harakatini amalda tugatishdi. Shu tariqa asr oxiriga kelganda yarim orolda yagona Ispan davlati tarkib topdi.⁶⁶

Yarim orolning ikki yirik qirolligi birlashuvi zahirida xristian dinining islom diniga qarshi kurashi jarayoni ham yotardi. Har ikki davlat hukmron tabaqalari xalqni birlashtirishda va arablarga qarshi kurashda birlashtiruvchi kuch sifatida xristian dinini bilishda va zo'r berib uni targ'ib qilishdi. Shu boisdan ham tarixda Ferdinand va Izabellalar «katolik hukmdorlar» nomi bilan ham ataldi.

Ularning birgalikdagi boshqaruv davri garchi muhim siyosiy voqeyaliklar bilan boy bo'lgan bo'lsa ham, ammo ularning davrida, ya'ni 1475-1503 – yillar mobaynida bor yo'g'i to'qqiz marta korteslar yig'ilishi chaqirildi. Qolaversa, hukmronliklarning ilk yillarida ular korteslardan ichki islohotlarni amalga oshirish yo'lida foydalanishdi, bunga misol qilib 1480-yilda Toledoda chaqirilgan kortesni aytish mumkin. Lekin Granada egallangan, Amerika kashf etilgan, yahudiylar quvg'inga olingan, inkvizitsiya sudi joriy qilingan kabi muhim voqealarga boy

⁶⁵ Корсунский А.Р. Курсатилган асар...205-бет.

⁶⁶ История средних веков. В 2-х томах. Т.1, Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова М., 1990, С.348.

bo'lgan 1482-1498 – yillarda korteslar umuman chaqirilgan emas. To'g'ri, korteslar hyeya qanday qonunchilik huquqiga ega bo'lmagan va qirollar ham qonun qabul qilishda ular bilan hisoblashishga majbur bo'lmagan (garchi soliq solish haqida qonunlar qabul qilish uchun korteslar yig'ilishi chaqirilishi shart bo'lgan bo'lsa ham). Korteslar shu yillar davomida yangi qirolni taxtga o'tqazish va bo'lg'usi taxt merosxo'rini tayinlash borasida chaqiriladigan bo'ldi.⁶⁷

Undan tashqari yangi taxtga kelgan qirollar fueros va erkinliklarga amal qilishga qasamyodni kortes deputalari oldida amalga oshirganlar. Qirolga to'g'ridan – to'g'ri kortes tabaqalaridan petitsiya taqdim etish huquqi, birinchi navbatda uchinchi tabaqadan, bu organni monarx va xalq bilan bevosita bog'lovchi tashkilotga aylantirdi. Yana shunday odat saqlanib qolgan ediki, agar qirol o'zi chiqarmoqchi bo'lgan qonunning yana ham ta'mirchanligini oshirish va xalq orasida yaxshi samara berish uchun korteslar bilan konsultasiya o'tkazgach e'lon qilingan. Bu barcha funksiyalar korteslarga shunday natija olib keldiki, XV – asrlarning 80-90-yillarida shu kabi masalalar ko'paygan sharoitda korteslar yig'ilishini chaqirishdan voz kechish amalda korteslarning avvalgi mavqeilariga sezilarli zarba berish bilan barobar bo'ldi. Izabella Xuana va Ferdinandning o'limidan keyin korteslar jami olti marta chaqirildi. Unda ham yechilishi murakkab bo'lgan masalalar tufayli (masalan, Navarrani qo'shib olish sharoitida Fransiya bilan bo'ladigan munosabatlar). Lekin Ferdinand va Izabella davrida korteslarga bo'lgan munosabat baribir ularning keyingi faoliyatiga ta'sir qilmasdan qolmadi, chunki hukmrdorlar o'zlarining mustaqil siyosatlarini yuritish maqsadida hali birlashishdan oldin ham o'zlarining davlatlarida korteslar yig'ilishiga suyanib qolmaslikka urinishgan edi. Chunki Kastiliyadagi korteslarga nisbatan Aragon korteslarida qirolning siyosatiga qarshi turish kuchliroq namoyon bo'lgan. Korteslarni kam chaqirishni Ferdinand Katoloniya ham targ'ib qilgan. Misol uchun, uchta viloyat korteslarini Ferdinand 1481-1515 – yillar mobaynida bor yo'g'i 16 marta chaqirdi, ulardan olti marta Aragonda, Valensiya bir marta, Katoloniya olti marta va uch marta umumiy korteslar yig'ilishi o'tkazildi (1484,

⁶⁷ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.1.М.:1951.стр. 463.

1510 va 1511 yy). 1503-1510 – yillargacha bo'lgan vaqt oralig'ida umuman korteslar yig'ilishi chaqirilmagan. Bir so'z bilan aytganda qirol hokimiyati tobora absolyutizmga qarab bormoqda edi. Bu davrda korteslar ahamiyatini tushirgan yana bir vaziyat bu korteslarning chaqirilishi qirollik kengashi nazoratiga o'tkazildi, endi kengash prezidenti ayni vaqtda kortes prezidentiga aylandi. Kortes tabaqalaridan ilgari qirol nomiga berilgan petitsiyalar endi qirollik kengashi a'zolariga taqdim etiladigan bo'ldi.

Ispaniyada Karl V (1516-1555) va Filipp II (1555-1598) hukmronligi davrida garchi zo'r berib markazlashtirish siyosati o'tkazilgan bo'lsa ham, Ispaniya baribir tarqoq hududlardan iborat kanglomerat davlat sifatida qolaverdi. Bu davlatning alohida hududlarini boshqarish uchun ispan monarxiyasining bir paytlar siyosiy yadrosini tashkil qiluvchi Aragon – Kastiliya qirolligida qaror topgan boshqaruv tartibi amaliyoti saqlanib qolaverdi. Unga ko'ra davlat tepasida ayni vaqtda Kastiliya Kengashining boshlig'i hisoblangan qirol turgan. Shuningdek Aragoniya, Kataloniya va Valensiyaning boshqaruvchi Aragon Kengashi ham mavjud bo'lgan Ispaniyadan tashqaridagi mulklarni boshqarish uchun Flandriya Kengashi, Italiya Kengashi, Hindiston Kengashi kabilar tashkil etildi. Ularning tepasiga oliy Kastiliya amaldorlari vakillariga mansub vitse – qirollar tayinlandi.

XVI – XVII asrlarning birinchi yarmida absolyutizmning kuchayishi jarayonida korteslarning nufuzi tushib bordi. XVI asrning birinchi choragidayoq ular qirolga yangi soliq va zayomlarni olishda maslahat organi vazifasini bajaruvchi cheklangan umumtabaqaviy muassasaga aylangan edi.⁶⁸

Ma'lumki, korteslar o'z faoliyatining datlabki yillarida soliqlarni tasdiqlovchi majlis sifatida ish yuritishgan, bundan tashqari shahar yig'inlari va boshqa xalq tashkilotlari korteslar orqali o'z petitsiyalarini (oliy davlat yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan beriladigan rasmiy ariza, iltimosnoma) taqdim etishgan, bu petitsiyalar natijasi to'liqligicha qirol bilan bog'liq bo'lgan. Shunday qilib korteslar imtiyozlar uchun kurash olib borganlar, lekin korteslarning qonunchilikka aralashishi to'liq man etilgan. Karl I Kastiliya korteslarining yagona

⁶⁸ История средних веков. В 2-х томах. Т.2, Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова М., 1990, С.123

huquqi bo'lmish soliqni tasdiqlash huquqini asta-sekinlik bilan yo'qqa chiqardi. To bunga erishguncha yangi qirol qiyin bir yo'lni bosib o'tdi. Ispaniyada taxtga kelgan bu qirolni unchalik xushlashmadi, chunki u Flamdriyaliklardan iborat maslahatchilar qurshovida yashardi. Qirol Ispaniya odatlari bilan yashayotganligi va qolaversa, soliq undirish uchun joylardagi mahalliy korteslar yig'ilishiga borib ishtirok eta boshladi. Faqatgina Aragon kortesi unga so'ralgan subsidiyani berishga rozilik bildirdi. Bu orada uni Germaniyada imperator taxtining merosxo'ri sifatida Muqaddas Rim imperiyasiga taklif etishadi. Shu boisdan u Valensiya o'zi chaqirgan kortes yig'ilishiga bo'lg'usi kardinal va pap Tortos yepiskopi Adrian Utrextskiyni yubordi. Bundan darg'azab bo'lgan Valensiya kortesi qirolga so'ralgan pullarni bermaslik to'g'risida qaror chiqardi. Germaniyaga borib imperatorlik tojini kiyishga ketadigan yetarli mablag'ni to'play olmagan Karl I Sant – Yagoda (Galisiyada) yana korteslarni chaqirishga majbur bo'ldi. 1520-yilning boshlarida ish boshlagan ushbu kortes yig'ilishida muxolifat qirolga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Natijada Karl I kortes yig'ilishini Koruniyaga ko'chirishga majbur bo'ldi. Kortess qiroлга so'ralgan pulni yig'ib olishga rozilik berdi, faqat bitta shart bilan, ya'ni qirol Germaniyaga ketishda o'zi bilan pul ham, otlar ham olib ketmasligi, hali xalq ishonchiga kirmagan xorijiy kishilarga lavozim bermasligi va uni davlat tepasiga qo'ymasligi shart edi. To'qqiz shaharga yetti qarshi ovoz bilan qirolga subsidiya berishga qaror qilindi.⁶⁹

Karl I o'ziga ma'qul bo'lgan soliqlarni deputatlarga qarshi tazyiqlar bilan amalga oshirardi. 1520-yilda qo'zg'alon ko'targan shaharlar ustidan qozonilgan g'alaba, qirol hukumatining korteslarga qarshi bo'lgan kurashini ham yengillashtirdi. Bu davrda deputatlarni pora berib sotib olish keng miqyosda avjiga chiqdi (bunday holat 1523-yildagi kortesda yaqqol namoyon bo'ldi). Komuneroslar (sheriklar) mag'lubiyatidan so'ng kortesdagi toifalar o'rtasida ajralishlar yuz berishi boshlandi. Toifalar o'rtasidagi ajralishda Karl I ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi, negaki endilikda toifalar (ruhoniylar, dvoryanlar va burjuaziya)

⁶⁹ История средних веков. В 2-х томах. Т.2., Под ред. С.Д.Сказкина и О.Л.Вайнштейна. М., 1939, С.128.

o'rtasidagi birlikda hojat yo'q edi, garchi bu uch tabaqa deyarli barcha o'rta asr korteslarida ishtrok etar edi va har bir toifa korteslarda o'z o'rniga ega edi.⁷⁰

Korteslar ishiga ko'proq shaharliklar chaqiriladigan bo'ldi. 1538 – yildan boshlab dvoryanlar va ruhoniylar tabaqasi rasman korteslarga chaqirilmay qo'yildi. O'sha vaqtda ispan dvoryanlarining ommaviy ravishda shaharlarga kelib joylashuvi natijasida byurgerlar va ular o'rtasida shaharning o'zini – o'zi boshqarishdagi o'rinlar bo'yicha kurash boshlandi. Oxir – oqibat dvoryanlar shaharlarning boshqaruvidagi barcha lavozimlarning yarmiga egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi. Xatto ayrim shaharlarda, Madrid, Salamanka, Samore, Seviya kabilarda, shahar kengashi tepasiga albatta dvoryanlar tabaqasiga mansub kishi o'tirishi kerak edi. Natijada korteslar yig'ilishda ham ularning son miqdori bu davrga kelib oz bo'lsada o'sganligini kuzatish mumkin.⁷¹

Korteslarning jamiyat hayotidagi navbatdagi nufuzining tushishi XVII asr o'rtalariga kelib kuzatilinadi. Sababi, qirolicha Mariana Avstriysk davrida ya'ni Karl II voyaga yetmagan vaqtda 1665-yil 27-sentyabrda soliqlarni tasdiqlash huquqi shahar yig'inlariga berildi va shu bilan korteslar chaqirilishi uchun asosiy sabab bo'lgan, korteslarning birdan-bir huquqi bo'lgan soliqlarni tasdiqlash ham korteslar qo'lidan ketdi. 1665-yilgi qirolicha Mariana qaroridan so'ng korteslar to 1700-yilgacha biror marta chaqirilmadi. Korteslarni chaqirish uchun harakatlar bo'lgan, misol uchun qirol taxti uchun Gabsburglar va Burbonlar o'rtasidagi kurashni hal qilish uchun korteslarni chaqirmoqchi bo'lishgan, lekin bu niyat amalga oshmay qolgan.

Aragonda, Kataloniyada, Valensiyada va Navarrada va'ziyat umuman boshqacha bo'lgan, bu hududlarda korteslar chaqirilib turgan, chunki 1665-yildagi qaror bu shaharlarga tegishli bo'lmagan. Misol uchun Aragonda 17 marta, Kataloniyada 13 marta, Valensiyada 14 marta va Navarrada 73 marta korteslar chaqirilgan. Bu hududlarda korteslarning chaqirilish sababi qirol subsidiyalarga muhtojlikdan chaqirgan.⁷²

⁷⁰ Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.2.М.:1951.стр.166/

⁷¹ История средних веков. В 2-х томах. Т.2, Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова М., 1990, С.124.

⁷² Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. Т.2.М.:1951.стр.166-168.

Bu davrda Ispaniyada hududlarning ajralganlik holati korteslarning birlashishiga yo'l qo'ymas edi. Shunday qilib korteslar inqirozi qirollarni qoniqtirar edi va korteslarga bo'lgan ehtiyoj asta-sekinlik bilan so'ndi.

XULOSA

O'rta asrlarda shakllangan tabaqaviy monarxiyaning aytish mumkin bo'lsa yorqin namunasini Fransiya tarixi misolida ko'rish mumkin. O'rta asrlar sharoitida davlatning markazlashuv jarayoni, ayniqsa Yevropada, nisbatan uzoq va mashaqqatli kechgan. Bu jarayonni nihoyasiga yetkazish ko'pincha bir shaxsning rolga bog'liq bo'lmagan. Davlat tepasida turgan monarx qanchalik qudratli bo'lmasin, ba'zi bir masalalarni hal etishda, chunonchi diniy masalalar, soliq, urush, askar to'plash, nikoh, meros qoldirish masalalarida baribir qandaydir guruhlarining, ya'ni tabaqalarning «maslahatiga» quloq solishga majbur bo'lgan. Lekin bu «maslahat» bo'lmasdan, balki monarxning amalga oshirmoqchi bo'lgan ishiga «xalq xohish irodasi» niqobini qoplash edi.

Tahlil qilib o'tganimiz Fransiyadagi General shtatlar tarixining o'zi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlab turibdi. Chunki ko'pincha davlat hukmdori o'z ehtiyojidan kelib chiqib, umumtabaqaviy muassasalar yig'ilishiga zarurat sezgan. Ammo ushbu yig'ilish qatnashchilari bo'lgan uchta tabaqa – ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklar vakillari o'z manfaatidan kelib chiqib majlisda ishtirok etishining o'zi mazkur tashkilotni ma'lum darajada qirolga muxolif rolini bajarganligini ko'rsatadi. Ko'pincha o'z erkinliklari va imtyozlarini o'yigan dvoryanlar va ruhoniylar qirolning siyosatiga qarshilik ko'rsatish orqali uni o'z qo'lida ushlab turishga intilgan bo'lsalar, aksinchi qirol uchinchi tabaqa vakillarining tayanchi orqali o'z maqsadiga erishish yo'lini tutib kelgan. Shunday bo'lsa ham, amalda General shtatlar Angliyadagi parlament kabi to'lig'icha qirolni o'zi bilan hisoblashib turadigan organga aylana olmadi. Buni Fransiyaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining o'ziga xosligi bilan izohlash kerak. Umuman General shtatlar va provinsial assambleyalarning faoliyati haqida umumiy xulosa beradigan bo'lsak, mumtabaqaviy muassasalar zarur vaqtda davlat hokimiyatining asosiy tayanchi sifatida ba'zi masalalar bo'yicha hal qiluvchi pozitsiyada turgan bo'lsa ham, ammo doimiy faoliyat yurituvchi organga aylanmadi. Qirol hokimiyatining zaiflashuvi tabaqalar o'rtasida ziddiyatlarning va qarama – qarshiliklarning kengayishiga omil bo'lib xizmat qildi. Undan tashqari

markaz va provinsiyalar o'rtasidagi kelishmovchilik ham General shtatlarning muntazam chaqirilib turiladigan davlat vakillik organi bo'lishiga to'sqinlik qildi.

O'rta asrlarda Ispaniyasida umumtabaqaviy muassasalar boshqa Yeropa davlatlariga nisbatan solishtirganda ilgariroq vujudga keldi. Buning hpm o'ziga yarasha sabablari borligini yuqorida izohlab o'tgan edik. Ammo ispan korteslari faoliyat yo'nalishiga ko'ra ko'proq fransuz General shtatlarini eslatib yuboradi. Ya'ni mazkur organ ham qirolga soliq yig'ish ishida va boshqa masalalarda «maslahat berish organi» vazifasini bajargan. Lekin zarur vaqtlari korteslar qirol tomondan chaqirilmasdan, o'z tashabbusiga ko'ra chaqirilib, unda taxt merosxo'ri yoki regentlik masalasi hal qilingan. Korteslar yig'ilishida ishtirok etuvchi tabaqalar yagona ispan davlati qaror topgunga qadar ayrim ispan davlatlarida to'rttani, ayrimlarida xuddi Fransiyadagidek uchtni tashkil qilgan bo'lsa ham, ammo ijtimoiy tarkibi deyarli bir xil bo'lgan. Yagona farq Ispaniya korteslarida yuqori tabaqa dunyoviy feodallardan iborat bo'lgan bo'lsa, General shtatlarda ruhoniylar qatlamidan tarkib topgan. Buning asosiy sababi Pireney yarim orolida arablarning hukmronligi natijasida uzoq yillar katolik cherkovi bu yerda yuqori mavqeini egallay olmaganligidadir.

Ikkinchi bir tomondan olib qaraganda o'rta asrda dastlabki ispan korteslarining chaqirilishiga ko'proq tashabbuskor davlat monarxi bo'lgan deyish mumkin. Chunki rekonkista natijasida kuchayib ketgan ayrim toifalar, xususan rikos ombreslar davlat hududida o'z xohishlaricha siyosat yuritgan, hatto qirolni taxtdan tushirish yoki boshqa qirolning vassalligiga o'tib ketish huquqi - «denaturalizasiya»dan foydalangan. Ana shu huqularini cheklash, boshqa tabaqalardan birinchi tabaqa ta'sirini tushirishda ko'mak olishga intilish ma'lum darajada korteslarning ilk yig'ilishlariga sabab bo'ldi.

Ispaniyaning turli davlatlarida faoliyat ko'rsatgan korteslar turli pozitsiyada turganligini aytish o'rinlidir. Masalan, Aragonda korteslar qirol hokimiyatini cheklashga uringan bo'lsalar, Kastiliyada aksincha hukmdorni qo'llab - quvvatlashgan. Xuddi Fransiyadagi kabi Ispaniyada ham absolyutizmning shakllanishi korteslarning keyingi faoliyatiga to'sqinlik qildi. Ayniqsa shaharliklar

tabaqasining ishtiroki kamayib ketdi. XVIII –asr oxiriga kelganda amalda Ispaniyada korteslar o'z faoliyatini to'xtatdi.

O'rta asrlar Fransiya va Ispaniyadagi umumtabaqviy muassasalarni bir – biriga yaqinlashtiruvchi yana bir jihat, mazkur organlarning qonunchilik faoliyati yo'qligidir. Har ikki organ ham ko'proq maslahat organi vazifasini bajarib bergan. Ba'zan, unda ham davlat tepasida turgan shaxs boshqaruvni qo'ldan berib qo'ygan bo'lsa, u holda General shtatlar va korteslar kuchayishga harakat qilishgan. Ammo o'z siyosatini butun mamlakatga o'tkazmoqchi bo'lgan monarx hech qachon ularning kuchayishiga yo'l qo'ymadi.

Garchi qonunchilik hokimiyatiga ega bo'lmasalar ham, o'rta asr fransuz General shtatlari va ispan korteslari davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Yangi zamon davriga kelib shakllanayotgan yangi tabaqalarning ilk zamiri ana shu yig'ilishdagi tabaqalardan kelib chiqdi. Bu birinchi navbatda burjaziyaga taalluqlidir. Undan tashqari yangi va eski dvoryanlar qatlamida ham ajralish sodir bo'ldi. O'rta asrlarda Ispaniya va Fransiya davlatchilik tizimining mustahkamlanishida, ma'lum darajada bugungi ibora bilan aytganda «demokratlashuviga» General shtatlar va korteslar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q. T., 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008.
3. Алтамира-и-Кревеа Рафаэль. История Испании. В 2-х томах.
4. Басовская Н.И. Столетняя война 1337-1453 гг. М., «Высшая школа», 1985.
5. Батыр К. И. История феодального государства Франции, М. 1975.
6. Бессмертный Ю.Л. Предпосылки и характер крестьянских движений во Франции XIV в /Французский ежедневник. М., 1976.
7. Большая советская энциклопедия. Под. редакцией Б. А. Введенского, Т. 40, М. АНСССР, 1956.
8. Гутнова Е.В. Возникновение английского парламента. М., 1960.
9. Денисова Н.А. К вопросу о политической роли горожан в Генеральных штатах Франции начала XIV в. – «Вестник МГУ». Сер. IX, история, 1966, № 3.
10. История средних веков. В 2-х томах. Т.2., Под ред. С.Д.Сказкина и О.Л.Вайнштейна. М., 1939.
11. История средних веков. В 2-х томах. Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова М., 1990.
12. История Франции. Ред колл. Т.1., М., 1972.
13. Конокотин А. В. Расслоение крестьянства и обострение классовой борьбы во французской деревне XIII в. УЗ. МГПИ, 1954, 68 вып. 4.
14. Корсунский А.Р. История Испании IX – XIII веков (социально экономические отношения и политический строй Астура-Леонского и Леона-Кастильского королевства). М., «Высшая школа», 1976.
15. Люблинская А. Д. Структура сословного представительства в средневековой Франции, ВИ, 1972, вып. 1.
16. Люблинская А.Д. Франция в начале XVII века (1610-1620 гг.). Л., 1959.
17. Люблинская А.Д. Франция при Ришелье. Французский абсолютизм в 1630-1642 гг. Л., 1982.

18. Пичугина И.С. Крестьянство и кортесы Кастилии во второй половине XIII – первой половине XIV в. – В кн.: Европа в средние века. М., 1972.
19. Пти-Дютайи Шарль. Феодалная монархия во Франции и в Англии. X-XIII веков. Пер. с франц. М., 1938.
20. Хачатурян Н.А. Возникновение Генеральных Штатов во Франции, М., 1976.
21. Хачатурян Н.А. Сословная монархия во Франции XIII – XV вв. М., 1989.
22. Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. В 3-х томах. Т 2.М. 1961.
23. <http://www.vostlit.info>
24. <http://prioslav.ru/kursm19>